

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

“Himoyaga ruxsat etildi”
Magistratura bo‘limi boshlig‘i,
dotsent _____ G‘.Doliyev
“ _____ ” _____ 2019 yil

5A112001-Jismoniy tarbiya va sport o‘yinlari nazariyasi va uslubiyoti
mutaxassisligi magistranti

Mamajonov Dilshodbek Adxamovich

«Olimpizm ta’limini tashviqot va targ‘ibot qilishning vosita va uslublari»
mavzusidagi

MAGISTRLIK DISSERTATSIYA

ISHI

Sport faoliyati kafedrasini mudiri: _____ kat. o‘qit. N.G‘ozdiyev
MDI rahbari: _____ p.f.n., dots. B.Boyboboyev

NAMANGAN-2019

MUNDARIJA

	KIRISH.....	4
I-BOB.	OLIMPIZM TA'LIMINING NAZARIY ASOSLARI.....	12
1.1.	Olimpiya ta'limidan nazariy mulohazalar	12
1.2.	O'quvchi yoshlar olimpiya ta'limi tizimi	20
	Bob bo'yicha xulosa.....	33
II-BOB.	OLIMPIYA TA'LIMINING TARG'IBOT SHAKLI VA VOSITALARI	34
2.1.	Olimpizm targ'iboti texnologiyalari yo'nalishlari vositalari va tamoyillari	34
2.2.	Olimpiya ta'limining shakllari va metodlari.....	47
2.3.	Olimpizm targ'ibotining tashkiliy tuzilmalar.....	54
	Bob bo'yicha xulosa.....	64
III-BOB.	OLIMPIZM TARG'IBOTINI TASHKIL QILISH BO'YICHA OLINGAN NATIJALAR VA ULARNING TAHLILI.....	66
3.1.	Oliy ta'lim tizimida olimpizm ta'limini targ'ib qilish yo'llari.....	66
3.2.	Umumiy o'rta ta'lim maktablarida olimpizm ta'limi integratsiyasi...	69
3.3.	Bolalar-o'smirlar sport maktablarida olimpiya ta'limini tashkil etish.....	73
	XULOSA VA AMALIY TAVSIYALAR.....	77
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	80

KIRISH

Mavzuning asoslanishi va uning dolzarbligi. Mustaqillik yillarida o'zbek xalqi o'zining fidokorona mehnatlari bilan jamiyat hayotining barcha sohalarida ulkan muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritib, jahondagi eng taraqqiy etgan davlatlar qatoridan joy oldi.

Mamlakatimizda sog'lom avlodni tarbiyalash ulkan qadriyat hisoblanib, insonning baxtli yashashi, o'qishi, mehnat qilishi uchun hamma sharoitlar yaratilmoqda.

Aholini keng qatlamini jismoniy madaniyat va sportga jalb qilish va bu orqali jamiyatda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, kelajagimiz egalarini har tomonlama barkamol qilib voyaga yetkazish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Mustaqillik sharofati bilan sportchilarimiz nufuzli xalqaro musobaqalarda yurtimiz sha'nini himoya qilish uchun barcha imkoniyatlar yaratildi. Hozirgacha sport olamining eng nufuzli musobaqasi bo'lgan olimpiya o'yinlarida yuzlab sportchilarimiz vatanimiz nomidan maydonga chiqib, yurtimiz shuhratini yanada yuksaltirishga ulkan hissa qo'shib kelmoqdalar.

Yoshlarni sport faoliyatiga jalb qilish bilan birga sportning insonparvar g'oyalarini, qadriyatlarini egallashga yo'naltirish lozim. Bunda birinchi navbatda, sportchi o'zida vatani sharafini himoya qila oladigan, halol kurasha oladigan, qo'pollik, ochko'zlik, kuch ishlatish, yovuzlik, ya'ni ham sportni, ham shaxsni, ham jamiyatni yemiruvchi hodisalarga qarshilik ko'rsata oladigan shaxsni, fuqaroni tarbiyalashi lozim¹.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-martdagi "O'zbekiston sportchilarini 2020-yilda Tokio shahrida (Yaponiya) o'tkaziladigan XXXII Olimpiya o'yinlari va XVI Paraolimpiya o'yinlariga tayyorlash haqida"gi Farmoni², 2017-yil 3-iyundagi "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada

¹ Mualliflar jamoasi. "Olimp sari". – Toshkent: "Navro'z", 2017. – 208 bet.

² Ўзбекистон Республикаси президентининг 2017 йил 9 мартдаги "Ўзбекистон спортчиларини 2020 йилда Токио шаҳрида (Япония) ўтказиладиган XXXII Олимпия ўйинлари ва XVI Параолимпия ўйинларига тайёрлаш хақида"ги ПФ-2821-сон Фармони.

rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori³ va sport soxasiga tegishli boshqa me'yoriy-xuquqiy hujjatlar bu masalalarning yechimi va huquqiy asosi bo'lib xizmat qilmoqda.

Bizga ma'lumki zamonaviy olimpiya o'yinlarini qayta tiklanishi bilan jamiyatning ijtimoiy va madaniy hayotida alohida o'rin egalladi, odamlarning turmush tarziga sezilarli ta'sir ko'rsata boshladi. Umuman olganda, Olimpiada o'yinlarining vujudga kelishi va tashkil etilishi tom ma'nodagi tarixiy hodisa bo'lib, ijtimoiy ahamiyati yuqori hisoblanadi. Shu sababdan uning turli qirralarini o'rganish tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, Olimpiya o'yinlarining tarixiy taraqqiyoti barchada birdek qiziqish uyg'otadi.

Olimpiada o'yinlarining eng muhim xususiyatlaridan biri shuki bunda ishtirokchilar (sportchi, murabbiy, hakam, muxlislar va boshqalar) tili, dini, millati, ijtimoiy kelib chiqishi va boshqa mansublik darajasidan qat'iy nazar yakdil bo'lib bahslashadilar. Bahslar jarayonidagi raqobat musobaqalardan so'ng unutiladi. Kuberten aynan shuni, ya'ni yakdillik va birdamlikni nazarda tutgan edi. Buni qarangki, u orzu qilgan maqsad va intilishlar tabiiy ravishda, Olimpizm orqali amalga oshirilmoqda.

Olimpizmni o'rganish va uning g'oyalari ruhida yashash insonga katta kuch baxsh etadi. Chunki, olimpizm g'oyalari poklik, halollik, yakdillik va birdamlik asosiga qurilgan. Olimpizm g'oyalari insoniyatni yaxshilik sari intilishga chorlaydi. Ona Vatanni sevish, do'stlarni hurmat qilish, tinchlik va do'stlikni targ'ib qilish hamda tenglik olimpizm g'oyalarida yetakchilik qiladi.

Ishonamizki, yoshlarni olimpizm g'oyalari ruhida tarbiyalash, ularni sportga qiziqtirish va sport bilan shug'ullantirish foydadan holi emas. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.Karimovning: "Sport - sport uchun emas, avvalo, barkamol avlod tarbiyasi uchun xizmat qilishi lozim", - degan chuqur ma'noli so'zlari ayni muddaodir.

³ Ўзбекистон Республикаси президентининг "Жисмоний тарбия ва оммавий спортни янада рикожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида" ПҚ-3031 сонли қарори.

Olimpiya ta'limiga – xalqaro e'tirofga sazovor bo'lgan innovatsion ta'lim faoliyati sifatida qaralmoqda⁴.

O'zbekiston olimpiya harakati taraqqiyotida sodir bo'layotgan o'zgarishlar, olimlar, publitsistlar tomonidan ishlatilayotgan "olimpizm" tushunchasi mohiyatini yangi nuqtai nazardan qarab chiqishni taqozo etadi. Olimpiya harakati va olimpiya sportining taraqqiyoti, bundagi muammolarning ko'pqirraliligi ilmiy jamoatchilikning bu masalalarga qiziqishini orttirib yubordi⁵.

Olimpizm tushunchasi ko'proq siyosatdonlar, xalqaro hamjamiyat tashkilotlari va boshqa sohalardagi arboblardan, mutaxassislar, xodimlar hamda yosh ijodkorlar faoliyatida ko'proq qo'llanib kelinmoqda. Qisqa qilib aytganda, olimpiya tarafdorlari uning g'oyalarini ommalashtirish, ijtimoiy turmush madaniyatiga tobora chuqur singdirish maqsadidadir.⁶

Bugungi kunda butun dunyoda mutafakkirlar, o'qituvchilar va faylasuflar zamonaviy olimpizmni ta'riflash, tushunish va sharhlashga urinishmoqda.

Ushbu sohada o'tkazilayotgan barcha ilmiy tadqiqot ishlari sohaning rivojlanishiga ulkan ta'sir ko'rsatayotganligi ham bizga sir emas. Hozirgi kunda olimpizm ta'limi sportning falsafiy asosi hisoblanib, u insoniyatni sport bilan shug'ullanishga chaqiruvchi asosiy vosita sifatida ham qaralmoqda.

Mamlakatimizdagi ta'lim muassasalarida o'quvchi – yoshlarga ta'lim va tarbiya berish, ta'limiy vazifalarni amalga oshirish jarayonida olimpiya ta'limi, olimpizmning insonparvar g'oyalari, olimpiya madaniyati, qadriyatlarini egallashga da'vat etish bugungi kunda dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Negaki, olimpiya ta'limoti bu - o'ziga xos, takrorlanmas va mukammal tarbiya vositasidir. Uning asl mazmuni va mohiyati insonlar, mamlakatlar va davlatlar o'rtasidagi hamjihatlikni ta'minlashni nazarda tutadi. Olimpiya o'yinlari haqidagi bilimlar shu darajada keng va ko'p qirraliki, uni o'rganish va targ'ib qilish hozirgi kun talabidir. Olimpiya g'oyalarini targ'ib qilish, olimpiya

⁴ Konstantinos G. The implementation of Olympic education programs at World level. *Procedia Social and Behavioral Sciences* 41 (2010) 6711–6718.

⁵ Б.Ғ.Бойбобоев. Олимпия таълими тизимининг ташкил қилиниши. *Фан спортга. Илмий-назарий журнал*. 2017 й. 4-сон. 76-79 б.

⁶ Eshnazarov J. Jismoniy madaniyat tarixi va boshqarish. T., "Fan va texnologiya", 2008. – 388 bet.

bilimlarini egallash nafaqat sport rivoji uchun, balki, jamiyat taraqqiyoti, yoshlar tarbiyasi, insonlar ma'naviy va jismoniy kamoloti uchun ham muhim ahamiyatga ega. Shu o'rinda olimpiya bilimlarini yanada mukammal va to'laqonli egallash, yoshlarni olimpizm g'oyalari ruhida tarbiyalash zarurati yanada ortadi.

Olimpiya bilimlarini egallash, olimpiya g'oyalarini targ'ib qilish zarurati quyidagilarda ko'rinadi:

- yoshlar tarbiyasining ustuvor vazifa ekanligi;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlarning e'zozlanishi;
- globallashtirish sharoitining xususiyatlari;
- insonlar hayotida, ayniqsa, yoshlar orasida sportning rolini oshirish, sport orqali sog'lom turmush-tarzinini targ'ib qilish;
- sportning fan sifatida kelgusi istiqbollarini prognozlash⁷.

Ayni vaqtda olimpiya qadriyatlarini targ'ib qilish, madaniy asoslarini rivojlantirish va jamiyatning insonparvarlik tamoyillarini mustahkamlash uchun jismoniy madaniyat va sportdan amaliy foydalanish texnologiyalarini o'zgartirishga imkon beradigan yangi nazariy yondashuvlarni ishlab chiqish dolzarb ahamiyatga ega bo'lib turibdi.

Natijada olimpiya ta'limi haqida maxsus bilimlar bilan o'quvchi-yoshlarni qurollantirish, ularni muntazam ravishda to'ldirib, chuqurlashtirib borish ta'limning asosiy vazifalaridan biriga aylanmoqda.

Bu esa olimpiya ta'limi, olimpizm qadriyatlari, printsiplarini va g'oyalarini tashviqot va targ'ibot qilishda eng samarali shakl, vosita va usullarini ishlab chiqish vazifasini qo'yadi.

Izlanishlarimiz natijasida mamlakatimizda bu sohada ilmiy-uslubiy ishlar yetarli darajada emasligi ma'lum bo'ldi.

Bularning barchasi olimpizm ta'limini tashviqot va targ'ibot qilish masalalarini dolzarb ekanligini belgilab beradi va uni alohida tadqiqot mavzusi sifatida o'rganishga asos bo'ladi.

⁷ Ф.Ш.Ахмедов, Ф.А.Облоназаров, Д.Б.Мамазиятов. Олимпия билимлари. Ўқув-услубий қўлланма. – Самарқанд: СамДУ. 2017 йил. - 60 бет.

Tadqiqot ob'ekti va predmeti. Ta'lim muassasalarida olimpizm ta'limini targ'ib qilish jarayoni hamda bunda qo'llaniladigan vosita va uslublar.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Ta'lim muassasalarida olimpizm ta'limini tadqiq qilish hamda uni targ'ibot va tashviqot qilishning vosita va usullarini o'rganish.

Tadqiqot ishi davomida qo'yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi.

- Mavzu yuzasidan adabiyotlarni tahlil qilish va o'rganish;
- Olimpizm ta'limi nazariyasi, mazmun-mohiyati, asosiy tushuncha va tamoyillarini o'rganish;
- Oliy ta'lim muassasalari talabalari, umumta'lim maktabi o'qituvchilari va sport maktablari trener-o'qituvchilari bilan anketa-so'rovi, suhbatlar o'tkazish;
- Olimpizm ta'limini targ'ibot va tashviqot qilishning vosita va usullarini o'rganish;
- Oliy ta'lim muassasasi, umumiy o'rta ta'lim va bolalar-o'smirlar sport maktablarining o'quv va tarbiyaviy ishlari jarayonini tahlil etish.
- Tadqiqot davomida olingan ma'lumotlarga asoslanib xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari.

Mavzu yuzasidan mamlakatimiz va chet el olimlarining ilmiy uslubiy adabiyotlarini o'rganish va tahlil qilish;

Olimpizm targ'iboti masalalarini qamrab oluvchi anketa so'rovnomasini o'tkazish;

Ta'lim muassasalarida olimpizm ta'limini targ'ib qilish maqsadida davra suhbatlari, seminarlar tashkil etish tadqiqotning asosiy masalalari etib belgilandi.

Tadqiqot davomida to'plangan ma'lumotlar va olingan natijalar quyidagicha faraz qilishimizga imkon berishi mumkin:

Yoshlarni sport faoliyatiga jalb qilish bilan birga sportning insonparvar g'oyalarini, qadriyatlarini egallashga yo'naltirish lozim; bunda, birinchi navbatda,

sportchi o'zida vatani sharafigi himoya qila oladigan, halol kurasha oladigan, qo'pollik, ochko'zlik, kuch ishlatish, yovuzlik, ya'ni ham sportni, ham shaxsni, fuqaroni tarbiyalashi lozim. Bunday vazifa olimpizm madaniyati qadriyatlarini egallash orqali hal etiladi;

Olimpizm ta'limini targ'ibot qilishda chet el mamlakatlarining amaliy tajribasini o'rganish va ularni milliyashtirish orqali mamlakatimiz miqyosida qo'llash samarali natijalarni beradi.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi (tahlili).

Mamlakatimizning ko'zga ko'ringan olimlari M.O'zbekov., E.Dolkart (1993), T.Yunusov., R.Abdumalikov., K.Yarashev (1993), S.Ro'ziev., Ye.SHatemikov. va boshq. (2001), K.Yarashev (2002), A.Xamraqulov., T.Yunusov (2002), I.Niyozov (2006), J.Eshnazarov (2008), A.Normurodov., I.Morgunova (2011), L.Djalilova (2013), M.Isroilovalar (2016), F.Sh.Axmedov., F.A.Oblonazarov., D.B.Mamaziyatov (2017), B.G'.Boyboboyevlar (2018) qadimgi va zamonaviy olimpiada o'yinlari tarixi, olimpiya ta'limi tushunchalari, Jahonda va O'zbekistonda olimpiya harakati to'g'risida ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Ushbu izlanishlar natijasida mamlakatimizda olimpiya bilimlari asoslari shakllantirildi deb aytishimiz mumkin. Lekin bu bilimlarni o'quvchi yoshlar uchun berishning samarali vositalari, shakllari va usullari to'liq o'rganilmagan.

Biz izlanishlarimiz davomida ushbu sohada chet el olimlari ko'plab natijalarga erishganligiga guvoh bo'ldik. Jahonning yetakchi olimlari V.I.Stolyarov (1997, 2013), K.A.Tixonovich (2001), Deanna L. Binder va boshq. (2007), K.A.Yurevich (2008), Konstantinos Georgiadis (2008), A.Pawlucki (2009), A.T.Parshikov (2011), M.A.Sergeevich (2013), Julia Murrmann (2014), V.S.Feldman (2014), J.Kosiewicz (2015), M.Kryuger (2016), V.Rodichenko (2017) lar olimpiya ta'limini chuqur o'rganib, uni madaniyat, ta'lim va sport bilan integratsiyalash ustida ish olib borganlar. Olimpizmning o'ziga hos xususiyatlarini izchil o'rganib, uning ta'lim tamoyillarini tushuntirib, uning sport ta'limidan farqli jihatlarini ochib berishga harakat qilganlar.

Bundan tashqari ko'plab mamlakatlarda olimpiya ta'lim dasturlari ishlab chiqilgan bo'lib, ta'lim jarayoniga tadbqiq etilgan.

Tadqiqotda qo'llanilgan uslublarning tavsifi: tadqiqot davomida ilmiy uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish va umumlashtirish, anketa tarqatish yo'li bilan so'rov o'tkazish, pedagogik kuzatish, pedagogik tajriba metodlaridan foydalanildi. Tajriba va so'rovlar natijalarini o'rganib chiqish va umumlashtirish uchun matematik-statistika usulidan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati.

Mazkur dissertatsiya ishi o'quvchi-yoshlar orasida olimpizm ta'limini tashviqot va targ'ibot qilish, ta'lim muassasalariga olimpiya ta'limini joriy etish masalalarini ko'rib chiqishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

O'quvchi yoshlarni sportga bo'lgan qiziqishi ortadi. O'quvchi yoshlarda olimpiya sport turlarining turli hil to'garaklarida ishtirok etish faolligi oshadi. Sportda natija va musobaqalarda g'alabaga bo'lgan intilish shakllanadi.

Ma'naviy – ma'rifiy ishlar va turli hil ommaviy tadbirlarda olimpiya ta'limi orqali yoshlarni yuksak ma'naviyatli, sog'lom fikrli, milliy va umumbashariy qadriyatlarni e'zozlash shakllantiriladi.

Olib borilgan ilmiy tadqiqot ishi natijalari bir qator ilmiy-amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishga yordam berish bilan birga, olimpizm ta'limini o'rganadigan ilmiy-uslubiy adabiyotlar qatoridan joy olib, uning mamlakatimizda keng targ'ib qilinishida amaliy ahamiyatga ega bo'ladi.

Ilmiy yangiligi: tadqiqot davomida ta'lim muassasalarida o'quvchi – yoshlarga ta'lim va tarbiya berish, ta'limiy vazifalarni amalga oshirish jarayonida olimpiya ta'limi, olimpizmning insonparvar g'oyalari, olimpiya madaniyati, qadriyatlarining ahamiyati o'rganildi;

olimpizm ta'limini targ'ibot va tashviqot qilishda chet el mamlakatlardagi ilg'or tajribalar va samarali vosita va usullar aniqlandi;

mamlakatimiz uzluksiz ta'lim tizimining 3 ta bosqichida olimpizm ta'limini targ'ibot va tashviqot qilish bo'yicha xulosa va amaliy tavsiyalar berildi.

Dissertatsiya tarkibining qisqacha tasnifi. Mazkur dissertatsiya ishi kirish, 3 ta bob va fasllar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati, xulosa va amaliy tavsiyalardan iborat bo‘lib, jami 88 sahifani tashkil etadi.

I-BOB. OLIMPIZM TA'LIMINING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Olimpiya ta'limidan nazariy mulohazalar

Ming yilliklar tarixiga nazar tashlar ekanmiz, qadimgi Gretsiyada paydo bo'lgan olimpizm bir qancha g'oyalar va taassurotlar oqimini yuzaga keltirganligiga guvoh bo'lamiz. Eramizdan oldingi yuz yilliklar qarida paydo bo'lgan olimpiya ruhi, nafaqat yashab qoldi, balki, ma'lum bir o'zgarishlarga uchragan bo'lsa-da, bizning davrimizgacha yetib keldi. Qadimgi greklar yaratgan barkamol shaxs, komil inson timsoli, hozirgi kunda ham bizga zulmatdagi yog'du kabi nur sohib, tana va ruhiyat, ongning tashqi hamda ichki shakllarini birlashtirishga da'vat etib turibdi.

Zamonaviy olimpizm fenomeni, turli mamlakatlarning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy shart-sharoitlari bir xil emasligida yaqqol aks etadi. Butun jahon olimpiya harakati zamonaviy dunyo ko'zgusiga, uning diqqat markaziga aylandi. Sportni zamonaviy sivilizatsiya hal etishi lozim bo'lgan muammolarni yanada kattalashtirib beruvchi oynaga qiyoslash mumkin bo'lib qoldi. Zamonaviy olimpiya harakati butun dunyoda ro'y berayotgan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jarayonlar bilan uzviy aloqador sanaladi. Ular olimpiya harakatining xolati va taraqqiy etishiga, rahbarlar faoliyati va ularning qarorlariga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Ushbu jarayonlarning o'zaro uyg'unligi muammosi olimpiya o'yinlarini tiklanishi bilan boshlangan, uning asoschisi Per Fredi de Kuberten olimpiya harakati kontseptsiyasini ishlab chiqqanda, avvalo uni pedagogik fenomen sifatida e'tirof etgan⁸.

Olimpiya ta'limi bir necha aspektlarda ko'rib chiqilgan:

- xalqlar o'rtasida o'zaro bir-birini tushunish sifatida;
- olimpiya harakatiga bo'lgan qiziqishlarni uyg'unlashtirish omili sifatida;
- sog'lom turmush tarzini shakllantirish vositasi sifatida.

⁸ Столяров, В.И. Система Олимпийского Образования, Воспитания И Обучения. - М., 2013. .

Olimpizm – bu hayot falsafasi va u insonparvarlikning falsafiy kontseptsiyasidan tashqarida bo‘lishi mumkin emas. Olimpizmning insonparvarlik kontseptsiyasi, insoniyat tarixida juda muhim rol o‘ynagan va kelgusi olimpiya harakatida ham poydevor vazifasini o‘taydi.

Zamonaviy olimpizmning falsafiy kontseptsiyasi asosida quyidagi dastlabki qoidalar yotadi:

- olimpizm sport orqali o‘z-o‘zini bilish sifatida sportning ijtimoiy-madaniy evolyutsiyasi, ya’ni sport orqali o‘z-o‘zini anglash, o‘zi uchun sportni kundalik turmush tarziga aylantirish, refleksiya kabilar orqali uning bir bosqichini yakunlaydi;

- olimpizm falsafasi: uchta o‘zaro bir-biriga bog‘liq bo‘lgan, ya’ni, antropologik, metafizik, ta’limiy komponentlardan iborat yaxlit tuzilma xisoblanadi;

- olimpizmning metodologik, falsafiy va madaniy tarzda yoyilishi, mavjud bo‘lgan madaniy oppozitsiya (qarshi kuch) “ma’naviy madaniyat-jismoniy madaniyat”ni bosib o‘tishga, olimpizm ruhini barcha sport uyushmalariga yetkazish va sportni madaniyat fenomenlari (san’at, ta’lim, ahloq)ga birlashtirish orqali ijtimoiy-madaniy adolatni tiklashga yordam beradi.

- olimpizmning ko‘p ovozli ekanligi uning ma’naviy ochiqligidan guvohlik beradi, neoolimpizmda dunyoning rang-barang madaniy olami sportda mujassamlashadi va shu orqali yetkazib beriladi.

Olimpizm qontseptsiyasining hozirgi kundagi zamonaviy qoidalarini tahlil qilish, bizga zamonaviy olimpiya falsafasining ayrim muhim jihatlarini aniqlash imkonini berdi:

- uning haqiqiy mazmuniga to‘g‘ri kelmaydigan g‘oyalarga kuchli beriluvchanlik, ichki mohiyatining eng muhim qirralarini boy berilishiga doimiy xavf solib turadi;

- uning sof falsafiy mazmunining murakkabligi va qarama-qarshiligi, zamonaviy jamiyatda yetarli darajada tarqalmaganligi va ommalashmaganligi;

- umumfalsafiy qarashlardagi insonparvarlik va o'ziga xos tomonlarning uzviy birlikda bo'lish zarurati;

- kontseptsianing yagona maqsad sari intilish zarurati;

Ushbu xususiyatlar olimpiya kontsepsiyasi har bir odamning hayotida muhim yo'nalish ekanligini xisobga olish zarurligi, mahdudlikka yo'l qo'ymaslik, turli sport musobaqalari va muvaffaqiyatli odimlarida o'z imkoniyatlari va intilishlaridan darak beradi.

Mazkur kontsepsiyada e'tiborga molik va asosiy tushuncha "olimpizm" - insoniyat tomonidan asrlar davomida to'plangan insonparvarlik tuyg'ulari, ijtimoiy va madaniy hayotdagi muhim xodisa sifatida e'tirof etiladi.

Olimpiya harakatining umumiy tushunchasiga asoslanib, Olimpizmning insonparvar g'oyalari va qadriyatlari, Olimpiya ta'limining maqsadi, vazifalari, mazmuni, vositalari va uslublari takomillashtirilmoqda.

Har qanday ilmiy nazariyaning samarali rivojlanishi uchun uning asosiy tushunchalari bilan tanishish va ularni o'rganish muhim hisoblanadi. Bu bizga ma'lum bir nazariy tahlil qilinadigan ob'ektlarni ajratib olishga, xususiyatlarini, munosabatlarini aniqlashga va boshqa nazariyalardan farqlashimizga imkon beradi. Bu olimpiya ta'limi nazariyasini shakllantirishning boshlang'ich nuqtasi bo'lib, o'rganilayotgan ob'ektlarni tahlil qilish uchun shart-sharoitlarni yaratib beradi va ushbu ob'ektlar uchun mazmunli kontseptual qoidalarni ishlab chiqishni asoslaydi.

Olimpiya xartiyasida ushbu pedagogik faoliyat ingliz tilida "Olympic education" atamasi ishlatiladi. O'zbek tilida bu ibora "Olimpiya ta'limi" deb tarjima qilinadi. Ayrim ilmiy adabiyotlarda boshqa atamalarni ham uchratishimiz mumkin, masalan "Olimpiya ruhida ta'lim", "Olimpiya tamoyillarini hurmat qilish ruhida tarbiyalash", "Olimpiya harakatlari orqali ta'lim", "Olimpiya harakatida ta'lim", "Olimpiya g'oyalari va qadriyatlari ruhida ta'lim" va boshqalar.

Eng muhimi, bu atamalar o'rtasidagi farqlarning ortida, muhokama qilinadigan ushbu pedagogik faoliyatning mazmuni va tushunchasi mavjud.

Olimpiya ta'limining tarkibi va mazmunini tahlil qilishda Per de Kubertenning zamonaviy Olimpizm tushunchasining xususiyatlariga, olimpiya ta'limining maqsad va vazifalariga, tinchlik, do'stlik, o'zaro tushinish va birodarlikni tarbiyalashga asoslanadi.

Olimpiya Xartiyasida olimpizmga shunday ta'rif beriladi: Olimpizm - bu tana, iroda va ong qadr qimmatini muvozanatlashgan bir butunlikka birlashtiruvchi hayot falsafasidir. Sportni madaniyat va ta'limot bilan birlashtiruvchi olimpizm sa'yi-harakatdan quvonish, yaxshi namuna hamda asosiy umumiy ahloqiy tamoyillarni hurmat qilishning tarbiyaviy qiymatiga asoslangan turmush tarzini yaratishga intiladi. Aytilganlardan ko'rinib turibdiki, olimpizmning ijtimoiy ahamiyati umuminsoniy qadriyatlar va ideallar bilan bog'liq. Uni o'quvchi yoshlarning ta'lim tarbiyasiga joriy etishda olimpiya ta'limining ahamiyati muhim hisoblanadi⁹.

1986 yili Birlashgan millatlar tashkilotining Bosh assambleyasining 50-sessiyasida H. A. Samaranch «Sport va olimpiya g'oyalari tufayli yaxshi hamda yanada mustahkam tinchlik o'rnatish uchun» mavzusida ma'ruza qiladi va shu asosda rezolyutsiya qabul qilindi. Unda jahon hamjamiyatini Olimpiya o'yinlari davrida «olimpiya tinchligini» o'rnatishga chaqirdi;

Olimpiadalar moddiy va ma'naviy madaniyatning turli tomonlarini rivojlantiruvchi kuch sifatida namayon bo'lib, Olimpiya o'yinlari yuqori darajada maftunkorlikka ega bo'ldi;

Olimpizm – bu, turli davlatlar sportchilarini yagona ahil oilaga birlashishidir. Bu o'zaro yordam, birdamlik, halollikka asoslangan do'stona munosobatlarni shakllantirib, nafaqat jismoniy sifatlarni, balki, tana va ruh uyg'unligini tarbiyalashga qaratilgan ta'limdir. U sportchilarda botirlik, or-nomus, qadr-qimmat, madaniyat va ma'naviyatni tarbiyalaydi hamda san'at, fan va texnika sohalarida sport faoliyatining tsivilizatsiya yutuqlari bilan uyg'unlashishiga qaratilgan qarashlar tizimini anglatadi.

⁹ Olympic Charter. In force as from 15 september 2017. International Olympic committee. Lausanne

Olimpizm - sport harakatining ma'naviy asosi bo'lib, uning negizida insonparvar g'oyalar yotadi, uning mazmun-mohiyati kishilarning yaxshi niyatlarga, tinchlikka, hamkorlikka intilishi, insonga, shaxsga, jamiyatga hizmat qilishdan iborat. Olimpiya sporti gumanizm, adolatli o'yin (Fair play), olimpizm falsafasini shakllantiruvchi tinchliksevar an'analarni oldinga suradi. Uni o'quvchi yoshlar ta'limi va tarbiyasi tizimiga joriy etishda olimpiya ta'limining ahamiyati yuksak e'tirofga molikdir.

Olimpiya ta'limi olimpiya harakatining kelib chiqishi muntazamligini anglash, uning shaxs va jamiyatning turli xil madaniy va ma'rifiy ehtiyojlarini qondirishga bo'lgan ta'sirini aniqlashning aniq jarayoni sifatida namoyon bo'ldi.

1968 yili Xalqaro olimpiya qo'mitasining 8-sessiyasida "Olympic Education", "Olimpiya ta'limi" taklifi birinchi marta italiyalik pedagog Sisto Favre tomonidan kiritildi.

Olimpiya ta'limi ba'zi bir uslubiy nashrlarda o'zgarishlar bilan tavsiflanishi ham kuzatiladi.

Germaniya milliy olimpiya akademiyasi prezidenti professor N.Myuller, Per de Kubertenning Olimpiya ta'limini beshta kontseptual g'oyasini ajratadi:

- mukammal shaxsning uyg'un rivojlanish g'oyasi;
- sport, ilm-fan va san'at sohasidagi ustunlikka erishish istagi asosida shaxsni takomillashtirish g'oyasi;
- Fair Play, sport faoliyatlari doirasida teng imkoniyatlar va qabul qilingan qonunlarni hurmat qilish kabi axloqiy qoidalarga bo'ysunish;
- tinchlik va o'zaro tushunish g'oyalari hamda hurmat va bag'rikenglikni talab qiladi;
- sportda va sport orqali tinchlikka erishish¹⁰.

Ushbu kontseptual g'oyalarning har biri olimpiya ta'limi nazariyasini to'ldiradi va shahsni takomillashtirishga hizmat qiladi.

¹⁰ Столяров, В.И. Система Олимпийского Образования, Воспитания И Обучения. - М., 2013.

Olimpiya ta'limi sport bilan insonning intellektual, axloqiy va jismoniy xususiyatlarini rivojlantirishga qaratilgan umumiy ta'limning bir qismi bo'lib, u xalqaro miqyosda tinchlikni ta'minlashga xizmat qilishga intiladi, ijtimoiy-siyosiy yo'nalishdagi farqlarni inobatga olgan holda, ijtimoiy adolatni o'rnatish va vatanparvarlik ruhini rivojlantirishga da'vat etadi.

Olimpiya ta'limining "erkin" va keng talqin qilinishi boshqa faoliyatlardan farq qilmaydi.

Turli mamlakatlar olimlari va pedagoglari orasida Olimpiya ta'limini tushunish va anglashning turli yondashuvlari mavjud.

Xalqaro olimpiya akademiyasining 26-sessiyasi estetik tarbiya olimpiya ta'limining muhim bir tarkibiy qismlari ekanligiga bag'ishlangan bo'lsa, 27-sessiyasida Robert Poul "Olimpiya ta'limini metodikasiga e'tibor qaratish, bu masalaga o'zining qarashi bilan Amerikada bolalar o'rtasida insholar, rasmlar tanlovini, olimpiya kunlarini o'tkazish xaqida fikr almashdi.

Rossiyalik S.Neverkovichning ma'ruzasida Rossiya maktab o'quvchilarining olimpiya bilimlarini shakllantirishning usullariga to'xtalib, "Fair play" tamoyili asosida axloqiy sifatlarni shakllantirishga yo'naltirish usullari haqida fikr bildirdi¹¹.

28-sessiyasida Vengriyalik olimlar Adray Laeszlo boshchiligida quyidagi qoidalar, ya'ni olimpiya ta'limining asoslari haqida o'rtoqlashdi.

- sog'liqni saqlash uchun harakat faolligi;
- sport go'zallik timsoli;
- "Fair play" ruhida mardlikni tarbiyalashni ko'rsatib berdi.

Germaniyalik professor Maykl Kryuger zamonaviy ta'lim tizimida olimpiya pedagogikasining evolyutsiyasi va roli haqida, Polyak olimi Herman Angreks olimpiya ta'limi tizimida kognitiv usullar haqida, Ispaniya vakili Konsado Dusater olimpiya harakati tashkilotchilari va jismoniy tarbiya o'qituvchilari va o'quvchilarga olimpiya qadryatlari haqida bilimlarni yetkazish masalalari haqida, professor Aoland Haul o'quvchi yoshlarga ta'lim berishda estetik qadryatlar va

¹¹ Neverkovich Sergei. Methods of Olympic Education // IOA. Report of the 27th Session. - Lausanne, 1988.- P. 172-176.

gumanizm nuqtai nazaridan olimpiya pedagogikasini ko'rib chiqish taklifini kiritdilar¹².

Vatanimiz olimlari A.K.Xamraqulov, T.T.Yunusov, E.K.Shaternikovlar ma'naviy, axloqiy va jismoniy rivojlanish manbayi bo'lgan olimpizm, jamiyat tsivilizatsiyasida har bir insonning hayotida zamonaviy olimpiya harakatining ahamiyatini ochib berdilar.

Ularning fikricha olimpiada qatnashchilarini go'zal qaddi-qomati, hushchaqchaq dilkash fe'l-atvori ularga xos bo'lgan shijoat, izlanish va yangiliklarga intiluvchanligiga ko'ra bilib olish mumkin. Ularga xos bo'lgan maqsadga intiluvchanlik, botirlik, murakkab vaziyatlarda tez yo'l topa olish, og'irliklarni yengib o'tish va mag'lubiyatni mardonavor ko'tara olish hususiyatlari sport orqali egallangan. Bizning olimpiadachilarimizga yuksak ma'naviy sifatlar bo'lmish do'stlik, sportdagi raqiblarning g'ururi va qadr-qimmatini hurmat qilish kabi fazilatlar xosdir. Olimpiyachi va sportchining eng muhim sifatlaridan biri yuksak fuqarolik va vatanparvarlik xissidir¹³.

Olimpiya ta'limi, har tomonlama rivojlangan shahsni tarbiyalashda xissasi katta bo'lib, barkamol insonni shakllantirish maqsadida tanani, ruhni va fikrni tarbiyalashga qaratilgan usullar va harakatlarning yig'indisi ekanligini ko'rsatadi. Ushbu yondashuv bilan Olimpiya ta'limi faqat Olimpiya harakati bilan emas, balki sport va umuminsoniy ta'lim bilan ham bog'liq holda nomoyon bo'ldi.

O'quvchi - yoshlarni olimpizm qadriyatlariga jalb qilish bilan bog'liq pedagogik faoliyatning vazifalari olimpiya bilimlari, ko'nikma va malakalarini shakllanishiga olib keladi. "Olimpiya ta'limi – o'quvchi va yoshlarni olimpiya harakati, olimpiya o'yinlari, shuningdek, qadimgi Gretsiyaning olimpizm g'oyalari

¹² Баринов С. Проблемы олимпийского образования в деятельности МОА / Баринов С. // Всемирные юношеские игры под патронатом Международного олимпийского комитета: материалы Междунар. форума «Молодежь – Наука – Олимпизма» под патронатом Всемирного совета физического воспитания и спортивной науки, 14-18 июля 1998 г., Москва. – М.: Сов. спорт, 1998. – С. 51-53.

¹³ Олимпия билим асослари: (Умумтаълим мактаблари, касб-хунар коллежлари ва академик лицейлар учун ўқув қўлланма) / Муаллифлар: А.Қ.Ҳамрақулов, Т.Т.Юнусов, Э.К.Шатерников ва бошқ.; С.С.Рўзиевнинг умумий тахрири остида. – Т.: "Шарк", 2002. – 96 б.

va qadriyatlari haqida ma'lumotga ega bo'lishlari va Per de Kubertenning g'oyalari va falsafiy qarashlarida zamonaviy talqinlarini topishga qaratiladi.

Olimpiya ta'limi - bu ijtimoiy va shaxsiy axloqni rivojlantirishga hissa qo'shadigan vositadir.

Kuberten "Shaxsiy axloq doirasida biz halollik, bag'rikenglik, mehr-shafqat, kamtarlik va ijtimoiy muxitda adolat, haqiqat, sadoqat haqida gapirishimiz mumkin" deb ta'kidlagan.

Uning pedagogik kontseptsiyasiga asoslangan tadqiqotlari olimpiya ta'lim tizimining quyidagi elementlarini aks ettiradi:

- sport sog'likni saqlash vositasi sifatida;
- sport go'zallik sifatida;
- sportda va sport asosida yoshlarni adolatli o'yin qoidalari ruhida tarbiyalash;
- yoshlarga jasoratni o'rgatish;
- sport yordamida insoniylikni tarbiyalash;
- olimpiya sportini tinchlikni mustahkamlash uchun qo'llash;
- sport bilan shug'ullanish asosida madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish¹⁴.

Olimpiya ta'limi o'quvchi yoshlar o'rtasida sport va olimpiya o'yinlarining turli qirralarini, ularning ahamiyatini ommaviy ravishda targ'ib qilish, turli mamlakatlar va xalqlar madaniyatiga va xalqaro hamjamiyatga tatbiq etiladigan ijtimoiy-madaniy salohiyatni samarali va keng talqin qilishga xizmat qiladi.

Xalqaro olimpiya harakati sport jarayonining asosini tashkil etadi. Ushbu ijtimoiy jarayonni uchta tushunchalar "olimpizm", "olimpiya harakati", "olimpiya o'yinlari"ni tavsiflaydi. Mazkur tushunchalar yig'indisi olimpiya harakatining va ularning tashkiliy shakllaridan ajralib turadigan xususiyatlarini aks ettiradi. Olimpiya harakati alohida ma'naviy asosga ega.

¹⁴ Мамажонов Д., Юнусов И., Рахмонов М. П.Кубертеннинг замонавий олимпия концепциясида шахс ривожланиши. // Олимпизм – кеча, бугун, эртага: муаммо ва ечимлар // Республика илмий-назарий анжумани. Н. 2018 й.-267-269 б.

Ko‘rinib turibdiki, olimpizmning ijtimoiy ahamiyati umuminsoniy qadriyatlar va ideallar bilan bog‘liq.

Olimpiadalar moddiy va ma‘naviy madaniyatning turli tomonlarini rivojlantirishda xissasi katta bo‘ldi. Bunday uyg‘unliksiz olimpiya o‘yinlari o‘zining bu darajada maftunkorligiga ega bo‘lmas edi.

1.2. O‘quvchi yoshlar olimpiya ta‘limi tizimi

O‘zbekiston Milliy Olimpiya qo‘mitasi 26 yildirki yurtimizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish orqali jamiyatda sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, Olimpiya harakati va olimpizm g‘oyalarini kengroq targ‘ib qilish yo‘lida faol ish olib bormoqda.

O‘zbekistonda olimpiya harakatining faoliyati O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risidagi” qonun (2015 yil 4-sentyabr yangi tahrir) hujjatlarida belgilab qo‘yilgan.

17-modda. O‘zbekiston olimpiya harakati. O‘zbekiston Milliy olimpiya qo‘mitasi.¹⁵

O‘zbekiston olimpiya harakati Xalqaro olimpiya harakatining tarkibiy qismi bo‘lib, uning maqsadi olimpiya harakati printsiplarini ommalashtirish, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga ko‘maklashish, sport sohasida xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, Olimpiya o‘yinlarida hamda Xalqaro olimpiya qo‘mitasi boshchiligida o‘tkaziladigan boshqa xalqaro sport tadbirlarida ishtirok etishdan iboratdir.

O‘zbekiston olimpiya harakati, O‘zbekiston Milliy olimpiya qo‘mitasi: - respublika nodavlat-notijorat tashkiloti tomonidan boshqariladi, ushbu qo‘mita o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga, Xalqaro olimpiya qo‘mitasining Olimpiya xartiyasiga hamda o‘z ustaviga muvofiq amalga oshiradi. O‘zbekiston Milliy olimpiya qo‘mitasiga o‘z ustavida belgilangan maqsadlarini

¹⁵ Ўзбекистон Республикасининг «Жисмоний тарбия ва спорт тўғрисида»ги Қонуни (Янги тахрири). Халқ сўзи. 2015. 5 сентябр.

amalga oshirishiga har tomonlama ko‘maklashgan holda, O‘zbekiston olimpiya harakatini tan oladi va qo‘llab-quvvatlaydi.

Mamlakatimiz sportchilari uchun davlatimiz tomonidan qaratilayotgan alohida e‘tibor va yaratilayotgan shart-sharoitlar sport olamining eng yirik musobaqalarida qo‘lga kiritayotgan muvofaqiyatlarga zamin yaratib bermoqda. Shu sababdan sportchilarimizning har tomonlama tayyorgarlik ko‘rishlari barchani zo‘r qiziqish bilan jalb etmoqda. Bu esa o‘z navbatida Olimpiya harakati g‘oyalarini yanada chuqurroq o‘rganish, uning tarbiyaviy, madaniy, ma‘naviy va ijtimoiy-siyosiy xususiyatlarini aholiga singdirib borishni hozirgi zamon davri taqozo etmoqda.

O‘quvchi yoshlar uchun olimpiya ta‘limining samarali tizimini yaratishdan maqsad, mamlakatimiz o‘quvchi yoshlarini har tomonlama yetuk va barkamol qilib tarbiyalashda olimpiya ta‘limining insonparvarlik, halollik, olimpiya madaniyati, qadriyati, olimpizmning gumanistik g‘oyalarini va bilimlarini shakllantirish samarali tizimini yaratish.

O‘quvchi yoshlar uchun olimpiya ta‘limining samarali tizimini yaratishning vazifalari:

- jamiyatda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, ayniqsa, o‘quvchi yoshlarni jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanishga ko‘proq jalb qilish;

- aholini jismoniy va ma‘naviy tarbiyalashda jismoniy tarbiya va sport, ayniqsa milliy sport turlari va o‘yinlari muhim ahamiyat kasb etishini targ‘ibot qilishga ko‘maklashish;

- xalqimizga Olimpizm qadriyatlarini hamda, “halol o‘yin” tamoyillari ruhida tarbiyalashni targ‘ibot qilish;

- olimpiya ta‘limi olimpizm g‘oyalarini o‘quvchi yoshlarga o‘rgatishda ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanish;

- olimpiada mavzusida varaqlamalar, choʻntak taqvimlari, bukletlar, otkritkalar, maʼlumotnomalar, sportga oid kichkintoylar uchun olimpiya rasmlarini boʻyash uchun kitobchalar nashr etish;

- oʻquvchi yoshlarga olimpiya taʼlimini samarali tizimini yaratishda targʻibot va tashviqot ishlarini tashkillashtirish;

- olimpiya taʼlimini rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslarini oʻquvchi yoshlar oʻrtasida olimpizm gʻoyasini va milliy olimpiya harakatining maqsad va vazifalarining asl maqsadini singdirib borish.

Olimpiya sporti tuzilmasi va tizimi quyidagicha.

“Olimpiya sporti” bilan bogʻliq kontinental va regional oʻyinlar olimpizm gʻoyalari va olimpiya tamoyillariga asoslangan.

“Olimpiada tuzilmasi” olimpiya oʻyinlarining oʻrtasidagi toʻrt yillik davrni bildiradi. “Olimpiya oʻyinlari tizimi”ni keng maʼnoda sharhlasa, u holda uni - sport va madaniyat hamda taʼlimni birlashtirib, mutanosib holatga keltiruvchi jarayon deb tushuniladi.

Olimpizmning asosiy tamoyillari¹⁶.

Olimpiya harakatlariga koʻmaklashish;

insonning demokratik huquqlaridan biri, u ham boʻlsa sport bilan shugʻullanish boʻlib, unga kerakli shart – sharoitlarni vujudga keltirishda rahnamolik qilish;

har bir insonga sport bilan shugʻullanishga koʻmaklashish;

insonlarni (har jihatdan) kamsitishning barcha xildagi koʻrinishlariga barham berish;

olimpiya harakatiga aloqasi bor har bir mamlakat yoki shaxs Olimpiya Xartiyasi qoidalariga rioya qilishi va xalqaro Olimpiya qoʻmitasini tan olishi zarur.

Olimpiya harakati kuyidagi mazmunni anglatib, “Olimpiya harakati” deganda, shunday majmua tushuniladiki, uning tarkibiga xalqaro Olimpiya qoʻmitasi (XOQ), milliy federatsiyalar, milliy Olimpiya qoʻmitalari, Olimpiya

¹⁶ Olympic Charter.In force as from 15 september 2017. International Olympic committetee. Lausanne

o'yinlarining tashkiliy qo'mitasi, milliy assotsiatsiyalar, klublar va ularning a'zolari, dastavval sport bilan shug'ullanuvchilar, hakamlar, murabbiylar (trenerlar) va sport bilan bog'langan boshqa shaxslar kiradi.

Olimpizm nima. Olimpiya Xartiyasida olimpizmga shunday ta'rif beriladi: Olimpizm - bu tana, iroda va ong qadr-qimmatini muvozanatlashgan bir butunlikka birlashtiruvchi hayot falsafasidir. Sportni madaniyat va ta'limot bilan birlashtiruvchi olimpizm sa'yi-harakatdan quvonish, yahshi namuna hamda asosiy umumiy ahloqiy tamoyillarni hurmat qilishning tarbiyaviy qiymatiga asoslangan turmush tarzini yaratishga intiladi. Ko'rinib turibdiki, olimpizmning ijtimoiy ahamiyati umuminsoniy qadriyatlar va ideallar bilan bog'liq. Uni o'quvchi yoshlarning ta'lim tarbiyasiga joriy etishda olimpiya ta'limining ahamiyati muhim hisoblanadi.

Olimpizmning maqsadi – jamiyatda tinchlik yaratish orqali insonni qadr – qiymatini yuqori pog'onalarga ko'tarishdir. Olimpizmga teng keladigani yo'q. Zamonaviy Olimpizm jamiyatning ijtimoiy va madaniy hayotida alohida o'rin tutadi, odamlarning turmush tarziga jiddiy ta'sir o'tkazadi va uni shakllantiradi, odamning sport faoliyati tarzini vujudga kelishida as qotadi. U dunyo bo'yicha katta ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy farmatsiya tarzida tan olingan bo'lib, unda insonparvarlik qadriyatlar va odamlarning tinchlikka, hamjihatlikka va o'zaro bir-birini tushunishga bo'lgan xohishlari hamda intilishlari o'z ifodasini topgan. Olimpiya Xartiyasi, Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi, Olimpizmning tamoyillari poydevori bo'lib asosiy qoidalari va rasmiy tushuntirishlar orqali tasdiqlangan hisoblanadi.

“Olimpiya o'yinlari” - bu indivudial va jamoa sport turlari bo'yicha mamlakatlar o'rtasida emas, balki sportchilar o'rtasidagi o'tkaziladigan musobaqalardir. Turli mamlakatlar sportchilari o'rtasida do'stlikni va birodarlikni mustaxkamlovchi sport o'yinlaridir.

Olimpiada xartiyasi: 15-sentyabr 2017-yilda qayta ishlab chiqilgan Olimpiya Xartiyasi 6 bob va 59 ta moddadan tashkil topgan. Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi

ustavi va Olimpizmning tamoyillari, poydevori bo'lib asosiy qoidalari va rasmiy tushuntirishlar orqali tasdiqlangan hisoblanadi.

Ushbu xartiya Olimpiya harakatlarining tarkibini, ta'sir etish tilsimini va Olimpiya harakati jarayonini belgilaydi, (reglamentiruet) hamda Olimpiya o'yinlarini amalga oshirishni aniqlaydi. Bu jarayon 3 ta asosiy vazifadan iborat bo'ladi.

Olimpiya Xartiyasining 3 ta tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

1. Xalqaro olimpiya harakati;
2. Xalqaro olimpiya harakati sport federatsiyalari, milliy olimpiya qo'mitalari;
3. Olimpiya Xartiyasi qoidalarini bajarilishi majbur bo'lgan olimpiya o'yinlarining huquqlari bo'yicha tashkiliy qo'mita.

Olimpiyada Xartiyasida XOQ faoliyati printsiplari, asosiy vazifalari bu harakatda bayon etilgan.

Asosiy printsiplari:

- Olimpizm tana, aql, irodani yagona maqsadga birlashtiruvchi va chorlovchi va namoyon etuvchi hayot falsafasidir.

- Olimpizmning maqsadi, sport har tomonlama barkamol insonni shakllantirishga xizmat qilishdir. Tinch jamiyat qurish va insonni shoni, obro'e'tiborini saqlash.

- Olimpiya harakatining faoliyati kelishuvchan, tashkiliy, doimiy va .universal xarakterda. XOQ oliy hokimiyati rahnamoligida amalga oshiriladi.

Bu faoliyat beshta qit'aga tarqaladi. U asosiy faoliyatning oliy cho'qqisi dunyo sportchilarining ulug' sport bayrami olimpiada o'yinlariga to'plashdir.

Olimpiada harakati beshta bir biriga bog'langan halqa bilan namoyon bo'ladi. Sport bilan shug'ullanish inson huquqi hisoblanadi. Har bir inson hech qanday kamsitishlarsiz shug'ullanishi mumkin. Olimpiada ruhi do'stlik, birdamlik va halol o'yinni talab qiladi.

Mustaqil sport tashkiloti tomonidan Sportni boshqarish tashkil etish nazorat qilinadi.

Olimpiada harakati – shaxsni qiziqishi, irqiy kelib chiqishi mamlakati, diniy e'tiqodi, jinsi va siyosiy qarashlaridan qat'iy nazar kamsitishning har qanday shakli bilan murosasiz kurashadi.

Olimpiada harakatining mezonlari va mansubligi XOQ tomonidan tan olingan va tasdiqlangan olimpiya xartiyasiga tayanadi.

Olimpiyada xartiyasi 6 ta bobdan va 59 moddadan iborat.

- Olimpiada harakati va uning faoliyati.

- Xalqaro olimpiada qo'mitasi

- Milliy olimpiada qo'mitalari

- Xalqaro federatsiyalar

- Olimpiada o'yinlari

XOQ vazifasi olimpizmni dunyoda tarqatish va olimpiada harakatiga raxbarlik qilish. XOQning asosiy vazifalaridan biri sport bilan shug'ullanishni rag'batlantirish va qo'llab quvvatlash. Shu bilan bir qatorda yoshlarni sport vositasi orqali halol o'yin ruhi hukumronlik qilishiga yo'naltirish, tajovuzkorlikka barham berish.

- Sport musobaqalari, sportni tartibga solish, rivojlantirish, tashkil etishni qo'llab quvvatlash va taqdirlash.

- Olimpiada o'yinlarini doimiy bayram qilishni ta'minlash.

- Sportni insonga xizmat qilishi, tinchlik uchun kurashish, jamoat tashkilotlararo xususiy tashkilotlar bilan hamkorlik qilish.

- Olimpiada harakatini birligi va mustaqilligini himoya qilish va mustahkamlashda ishtirok etish.

- Olimpiada harakatiga zid bo'lgan kamsitishlarning har qanday shakliga qarshi kurashish.

- Ayollar va erkaklarni teng huquqliligi printsipiga erishish maqsadida ayollarni sportda har qanday daraja va strukturaga yo‘naltirishni qo‘llab quvvatlash va taqdirlash.

- Sportda dopinga qarshi kurashishni boshqarish.

- Sportchilar sog‘ligini himoya qilish choralarini qo‘llab quvvatlash va taqdirlash.

- Sportda va sportchilarni har qanday siyosiy va odam savdosiga, tijorat maqsadida suistemol qilishga qarshi kurashish.

- Bo‘lajak sportchilarni ijtimoiy va kasbiy ta‘minoti yo‘nalishda sport tashkilotlari va organlarini jamoatchilik boshqaruvini qo‘llab quvvatlash va taqdirlash.

- Hamma uchun sportni rivojlanishini qo‘llab quvvatlash va taqdirlash.

- Olimpiada o‘yinlarini ekologik talablarga mos holda o‘tilishini talab qilish, sportni rivojlanishida ekologik printsiplarga rioya qilishni ta‘minlash, atrof muhitni muhofazasi va g‘amxo‘rlik qilish ma‘ulligini qo‘llab quvvatlash va taqdirlash.

- Olimpiada tashkil etishda olimpiadani o‘tkazuvchi shahar mamlakat bilan ijobiy natija olish uchun hamkorlik qilish.

- Sport, madaniyat va ta‘limni o‘zaro bog‘lash ko‘llab quvvatlash va taqdirlash.

- Olimpizm ta‘limotiga faoliyatini bag‘ishlagan ta‘lim muassasalarini va XOAni faoliyatini qo‘llab quvvatlash.

Per de Kuberten 1913-yili olimpiada ramzlarini taqdim qildi (xalqa va bayroqni).

1913 yili Parijda olimpiada bayrog‘i tayyorlandi va 1914-yil Pan Yegiptus uyinlarida Aleksandriyada birinchi marta kutarildi. 1914-yili iyunda VI olimpiada kongresida Parijda maquullandi. Bayroq 1920-yili Antverpenda o‘tkazilgan olimpiada o‘yinlarida ko‘tarildi.

MOQni yuridik maqomi xalqaro nodavlat tashkiloti, muddati chegaralanmagan uyushma shaklida, yuridik shaxs maqomida, Shvetsiya federal

kengashi tomonidan tan olingan bo'lib, shartnomaga mos holda 1-noyabr 2000-yilda kuchga kirgan.

MOQ olimpiada poytaxti Lozanna (Shvetsariya) shahrida doimiy turadi.

MOQning vazifasi olimpiya xartiyasida bayon etilgan roli, burchi va missiyalarini bajaradi.

MOQ qarori qat'iy bo'lib, olimpiada xartiyasiga bog'liq bo'lgan har qanday ziddiyatli muammo yoki tushuncha MOQ ijroiya qo'mitasi bilan hal etiladi. Ba'zi hollarda sud orqali (sport arbitraj sudi SAS) hal etilishi mumkin.

Olimpiya harakati beshta bir biriga bog'langan xalqa bilan namoyon bo'lishi xalqlar o'rtasidagi do'stlikni yanada mustaxkamlaydi. Sport bilan shug'ullanish inson huquqi hisoblanadi. Har bir inson hech qanday kamsitishlarsiz shug'ullanishi mumkin. Olimpiada ruhi do'stlik, birdamlik va halol (Fair play) o'yinni talab qiladi.

Olimpiya harakati – shaxsni qiziqishi, irqiy kelib chiqishi mamlakati, diniy e'tiqodi, jinsi va siyosiy qarashlaridan qat'iy nazar kamsitishning har qanday shakli bilan murosasiz kurashishi bugungi globallashuv jarayonida o'ta muhim ahamiyat kasbetadi

O'quvchi yoshlarga olimpiya ta'limining pedagogik samarali tizimini yaratish uchun.

1. Ularni sportga bo'lgan qiziqishi, sport mashg'ulotlariga bo'lgan talab, sportdagi natija, musobaqalarda g'alabaga bo'lgan intilishni shakllantirish.
2. O'quvchi-yoshlarni turli yo'nalishdagi jismoniy tarbiya va sport faoliyatiga jalb qilish.
3. Olimpiya ta'limi jarayonida ma'naviy va ma'rifiy tarbiya masalalariga yetarlicha e'tibor qaratish yoshlarda yuksak ma'naviy qadriyatlar, zarur bo'lgan ko'rsatmalar hamda sport faoliyati bilan shug'ullanish sabablarini tarbiyalashda yordam beradi.
4. Olimpiya ta'lim tarbiyasida nafaqat tarixiy sanalar, faktlar, olimpiya chempionlarini bilib olish, balki yoshlarni sportga faol jalb qilish, ularni o'z

rekordlarini o'rnatishga bo'lgan intilishni rivojlantiradi va birinchi navbatda o'z ustidan g'alaba qozonishga o'rgatadi.

O'quvchi yoshlarni va aholini turli tabaqalarini jismoniy tarbiya va sportning turli xil shakllari, vosita va usullaridan sog'lomlashtirish va dam olish, jismoniy tarbiya va sportga jalb etish va sog'lom turmush tarziga amal qilishni targ'ibot qilish muhimdir.

O'quvchi yoshlarni olimpiya ta'limi jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish, jismoniy tarbiya va sportga oid bilim ko'nikma va malakalarni shakllantirish, jismoniy madaniyatning to'laqonli imkoniyatlaridan keng foydalanish ustuvor ekanligini anglab yetish va o'quvchi yoshlar ongiga singdirish zarur.

O'quvchi yoshlarga olimpiya g'oyalari bilan chambarchas ma'naviy – ma'rifiy ishlarga e'tibor qaratish, milliy g'oya va milliy qadriyatlar va an'analarga sodiq vatanparvarlik ruhida tarbiyalash milliy g'oya va an'analarga zid bo'lgan turli oqimlarga qo'shilmaslik, sportchilarda uchrab turadigan manmanlik, ochko'zlik kabi salbiy sifatlarni shakllanishini oldini olish tarbiyada muhim ekanligini unutmaslik zarur.

Insonparvarlik g'oyalariga asoslangan olimpiya tarbiyasi sportchilarni yuksak ma'naviy qadriyatlarga sodiq qilib tarbiyalashda maqsadga muvofiqdir. O'quvchi yoshlarga olimpizm ta'limining ilg'or usullarini qo'llash va amalga oshirishda targ'ibot va tashviqot ishlarida matbuot, radio, televidenie va turli xil ommoviy axborot vositalari katta ahamiyatga kasb etadi.

So'nggi yillarda o'quvchi yoshlarga olimpizm g'oyalari asosida ta'lim va tarbiya berish haqida ilmiy tadqiqot ishlari paydo bo'lmoqda. 1994-yilda Frantsiya poytaxti Parijda xalqaro olimpiya qo'mitasining (XOQ) XI olimpiya kongressida, xalqaro olimpiya qo'mitasi prezidenti X.A.Samaranch tomonidan olimpizm g'oyalarni tarqatish haqida fikr bildirgan edi. Ya'ni xalqaro olimpiya qo'mitasining 100 yilligiga bag'ishlangan kongresda "Olimpizm g'oyalarini o'rgatish jamiyatning har qaysi bo'g'inlarida amalga oshirish zarur". Bu kongresning

xotimasida quyidagicha belgilangan edi. “Olimpizmning axloqiy, madaniy, ta’limiy qadriyatlari sport amaliyotining kengayishi, ularni sharoitlari bilan olimpiada harakatini barcha qatnashchilari tomonidan jadallashtirilishi lozim. Sport amaliyoti olimpiya printsiplariga mos holda amalga oshiriladi. Xususan, maktablarda, ta’lim muassasalarida, asosan, ta’limning samarali shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Olimpizm bo’yicha ilmiy uslubiy adabiyotlar tahlil etilganida, o‘quvchi yoshlarning ta’lim - tarbiya tizimini olimpizm g‘oyalariga bog‘liq holda amalga oshirish chet ellarda va vatanimiz olimlari, pedagoglari, faylasuflari va ilmiy izlanuvchilari tomonidan ham olimpizmning zamonaviy sharoitda o‘rganilmagan tomonlari uchraydi.

Olimpizmni rivojlanishidagi asosiy vazifa, olimpiada harakatidagi oqilona isloxotlar turadi.

Shunday qilib olimpizm o‘quvchi yoshlarga ta’lim tarbiya berishda tarixiy, ijtimoiy-madaniy hodisa bo‘lib kolmasdan, balki uning muammolarini hal etishni yangi yo‘llari topilmasa, u o‘ta muhim bo‘lib turaveradi.

Shu munosabat bilan pedagogik nuqtai nazardan olimpizmning yangi kontsepsiyalarini izlash davr talabiga aylanmoqda.

Olimpiya harakati insonparvarlikni oliy g‘oyalariga xizmat qilishi, ortiqcha dabdababozlikka berilmasligi lozim. Olimpiya harakatining insonparvarlik g‘oyalari yuzasidan tadqiqotlar qilishi lozimligini ilgari suradi.

Per de Kuberten fikriga ko‘ra, olimpiya harakati faqat sportning maqsad vazifalari bilan chegaralanib qolmasligi lozim.

Dastlab olimpiada g‘oyasi paydo bo‘lgan bo‘lsa, 1912-yildan so‘ng Per de Kuberten tomonidan olimpizm g‘oyasi ilgari surildi.

Bu printsipga mos holda sport, sport musobaqalari, avvalambor, olimpiya o‘yinlari jamiyatda inson kamolotini takomillashtirishga, insonlarni o‘zaro munosabatini yaxshilashga, an’analarni rivojlantirishga xizmat qildi.

Zamonaviy madaniy an'analarga ko'ra olimpizm tushunchasi zamonaviy olimpiyada harakatining nazariyasiga asos soladi. Uning asosiy maqsadi sport vositasi orqali o'quvchi yoshlarni tarbiyalash yo'li bilan tinchlikni ta'milashga yo'naltirish, halol o'yin, birodarlik va birdamlik muhitida kamsitishlarni har qanday shakllarini oldini olib o'zaro bir birini tushunishdir.

Biroq olimpizmni faqat davlatlarni milliy manfaati yo'lida sport musobaqalari doirasida fikrlash mumkin emas.

1972-yil Xalqaro olimpiya qo'mitasining 12-sessiyasida nemis olimi Ernst Louerbak "Maktablarda olimpiya printsplarini tashviqot qilish masalalari" bo'yicha ma'ruza qiladi va bu mavzuni Avstraliyalik olim Xerman Andres tomonidan 1974-yili XOQ 13-sessiyasida davom ettirib u o'z nutqida olimpiya g'oyasi va uni maktabda amalga oshirishning uchta asosiy omillarini ochib berdi, muallif fikricha:

- olimpiya ta'limi maktab ta'lim tizimida o'z aksini topishi kerak;
- olimpiya ta'limini takomillashtirish uchun harakatlar zarur;
- madaniy festevallar va sportning integrallashuvi omillariga e'tibor qaratish lozim¹⁷.

M.A.Bogdanova ta'kidlaydiki, olimpiya munosabatida sportni madaniyat va ta'lim bilan bog'lash, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, quvonchdan zavqlanish, tarbiyaning qadri va axloqiy qoidalarga hurmat bilan qarash xarakterlidir¹⁸.

Olimpizm kontsepsiyasida faqat sport madaniyatini shakllantirish yotmasdan P.Kuberten tomonidan XIX asr oxiri XX asr boshlarida ishlab chiqilgan va amalga oshirilgan gumanistik yo'naltirilgan yorqin namoyon bo'lgan sport madaniyati yotadi.

O'quvchi-yoshlar uchun millatni sog'lomlashtirish va ularni sportga yuksak natijalarga erishishga intilishiga zamin yaratish uchun olimpiyada g'oliblari va

¹⁷ В.Ермолова. Деятельность международных организаций и вопросы олимпийского образования. Наука в олимпийском спорте. Международный научно-теоретический журнал. Украины. 2009-9.

¹⁸ Богданова М.А. Культурное содержание олимпизма: от античности к современности // Вестник Томского государственного университета. – 2010. - № 336. – С. 55 – 59.

sovrindorlari haqida ko‘proq ma’lumotlar to‘plab Olimpiya harakatini rivojlantirish va uning g‘oyasini targ‘ibot qilish uchun olimpiya o‘yinlari dasturlaridan o‘rin olgan turlari haqida o‘quvchi yoshlarga yetkazish bo‘yicha ta’limning samarali tizimi ishlab chiqilib ta’lim muassasalari o‘quv dasturiga kiritishni amalga oshirish kerak. “Olimpiyachilar oramizda”, “Biz olimpiadachilarmiz” shiori ostida, Olimpiya o‘yinlari qatnashchilari va murabbiylari bilan davra suhbatlari o‘tkazish ham targ‘ibotning muhim vositasidir.

Robert Poul xalqaro olimpiya akademiyani 27-sessiyasida “Olimpiya ta’limining metodikasi”ga e’tibor qaratib, olimpizm bo‘yicha Amerika qo‘shma shtatlarida, bolalar o‘rtasida turli xil tanlovlar insholar, rasmlar tanlovini, olimpiya kunlarini o‘tkazish haqida o‘z tajribalari bilan o‘rtoqlashdi.

Olimpizmni tashviqot qilish haqida davra suhbatlari, festivallar, olimpiya kunlari va haftaliklarini tashkil etish muhimligini nemis Nuris Vayskal ta’kidladi¹⁹.

Sport va olimpiya o‘yinlari bilan bog‘liq tadqiqotlar umumiy o‘rta ta’lim va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida o‘quvchi va yoshlar uchun quyidagi tizim va yo‘nalishda amalga oshirildi:

- olimpiya sport turlari bo‘yicha musobaqalar o‘tkaziladigan joylar va ob’ektlarni o‘rganish;

- olimpiya tarixi va qadimgi hayotiy voqealarni aks ettiradigan dramatik pesalar va teatr sahnalari namoyish etish;

- g‘irromlik, adolatsizlik firibgarlik holatlari, qoidalar buzilishi, raqiblarning poraxo‘rligi, millatchilik namoyishlarini tanqidiy muhokamasi;

- qadimgi va zamonaviy olimpizmning g‘oyalari o‘rtasidagi o‘xshash tomonlarini o‘rganish;

- sportda axloq muammolarini o‘rganish, sportda halol uyinni (fair play) targ‘ib qilish,

¹⁹ В.Ермолова. Деятельность международных организаций и вопросы олимпийского образования. Наука в олимпийском спорте. Международный научно-теоретический журнал. Украины. 2009-9.

- inson salomatligini saqlash va mustahkamlash, jismoniy sifat va jismoniy madaniyatni shakllantirishga qaratilgan tadbirlar;
- sport mahorati bo'yicha mashg'ulotlar tashkil etish;
- bolalar sport jamoasini tashkil etishning pedagogik texnologiyalarini ishlab chiqish;
- olimpizmga asoslanib sportni boshqarish sohasini o'rganish;
- sportchilarning barcha jihatlarini bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish.

Olimpizmni nazariy jihatdan ta'lim muassasalarida quyidagicha tashkil etish maqsadga muvofiq.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari, kasb hunar kollejlari va akademik litseylar, oliy o'quv yurtlarida dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda:

- jahon xalqlarining olimpiya sporti sohasidagi yutuqlari bilan tanishtirish;
- olimpiya sporti tarixini ilmiy nazariy asoslarini tahlil qilish;
- olimpizmning insonparvarlik qadriyatlari ahamiyatini ifodalash;
- O'zbekistonda olimpiya sporti tarixi bilan tanishtirish;
- milliy sport turlari va o'yinlarida olimpizm g'oyalarini singdirish;
- aholi o'rtasida olimpizmni targ'ibot qilish usullari va vositalarini qo'llashni o'rgatishdan iborat bo'lib, amaliy jihatdan;
- olimpiya tizimi tashkiliy tuzilmasini o'rganish;
- olimpizm tushunchalari va ularning mohiyatini anglash;
- olimpizmning nazariy asoslarini, olimpizm g'oyalarini targ'ib qilish usullari va eng ilg'or tajribalarni o'rganish;
- jahonda olimpiya harakatining asosiy davrlarini, rivojlanish qonuniyatlarini tahlil etish;
- uchrashuvlar, davra suhbatlari va turli tanlovlar, seminarlar tashkil etish;
- O'zbekistonda olimpiya harakatini rivojlanish tarixi to'g'risidagi bilimlarga ega bo'lishi kerak.

Olimpizm tarix, jismoniy tarbiya va sport tarixi, pedagogika, psixologiya, sotsiologiya, falsafa, jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyoti bilan uzviy aloqada.

Bob bo'yicha xulosa

Xulosa qilib aytganda, olimpiya ta'limining nazariy asoslarini o'rganish maqsadida olib borgan tadqiqotlarimiz, ya'ni chet el adabiyotlarini o'rganish va tahlil qilish olimpizmni to'laqonli tushunishimizga va uni bor "bo'y-basti" bilan tassavvur etishimizga yordam berdi. Navbatdagi olib borgan tadqiqotlarimizning samarali va natijavorligida katta ahamiyatga ega bo'ldi.

O'quvchi yoshlar ta'lim tizimida Olimpiya ta'limining barcha hususiyatlarini o'z ichiga olgan aniq tushunchalarni o'rganish, anglash, qo'shimchalar qilish va ilmiy izlanishlar olib borishni davr taqozo etmoqda.

Olimpiya ta'limini o'quvchi-yoshlarga o'rgatish, targ'ibot qilish, olimpiya ta'limi orqali olimpizm g'oyalarini keng jamoatchilikka singdirish xalqlar o'rtasida o'zaro do'stlik, tinchlik, mehr oqibat insonparvarlik g'oyalari, olimpiya qadriyatlarini, tamoyillarini ta'lim muassasalarida amalga oshirishda ilmiy uslubiy, ilmiy tadqiqot ishlari yetarli darajada emas. Va ushbu masalalar yurtimiz olimlari tomonidan yetarlicha o'rganilmagan.

II-BOB. OLIMPIYA TA'LIMINING TARG'IBOT SHAKLI VA VOSITALARI

2.1. Olimpizm targ'iboti texnologiyalari, yo'nalishlari, vositalari va tamoyillari

Mamlakatimiz qudratini belgilaydigan eng asosiy omillardan biri bu yuksak ma'naviyatli, jismonan va ruhan sog'lom, har tomonlama barkamol avlodni tarbiyalash masalasidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta'kidlaganlaridek, "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz".²⁰

Bu borada ta'lim o'quvchi va talabalarga bilim berish, ularni tarbiyalash, rivojlantirish ko'nikma va malakalar hosil qilish, yoshlarni hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasidir.

Olimpizm ta'limining targ'iboti va tashviqoti haqida to'xtalishdan avval "targ'ibot" va "tashviqot" tushunchalarining o'zagiga e'tiborni qaratish zarur.

"Targ'ibot", "tashviqot" so'zlarining ma'nosi nima? «Targ'ibot» so'zi arabcha rag'batlantirish, kishida, odamlarda u yoki bu narsaga xohish, mayl paydo qilishni anglatadi. «Tashviqot» esa, kishini, xalqni olimpizm g'oyasi atrofida birlashishga shavqlantirish, orzumand qilish, kuchli mayl, istak hosil qilish demakdir. Pedagogik-psixologik qonuniyatlar asosiga qurilgan tashviqot g'oya va shiorlarni amaliy kuchga aylantiradi.

Targ'ibot-insonning ongi va qalbini egallashga qaratilgan. Targ'ibotchilarni shuning uchun ham «inson qalbining sozlovchilari» deb ataydilar. Demak, targ'ibot-tashviqotdan maqsad – faqat bilim orttirish emas, balki kishini biror harakatga undashdan iborat. Masalaga ana shu jihatdan qaraydigan bo'lsak, "Olimpizm ta'limi" haqida ma'lumot berish bilan cheklanmasdan, qo'yilgan

²⁰ Мирзиёев Ш.М. "Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қураимиз". - Т.: "Ўзбекистон": 2017. - 485 б.

maqsadlarni aniq vazifalar shakliga keltirishimiz, olimpizm ta'limotidagi asosiy g'oya va ideallarning amaliy harakatlarga aylanishiga erishishimiz zarur.

Odamlarni u yoki bu maqsadga yo'naltirish, tarbiyalash ikki tomonlama jarayon. Bunda targ'ibot sub'ektlari (targ'ibotchilar, TV, radio, matbuot) va targ'ibot ob'ektlari (shaxs, axoli) ishtirok etadi.

Targ'ibot va tashviqotning samaradorligi xalq, jamoa siyosiy ongida targ'ibotgacha va targ'ibotdan keyingi darajalar orasidagi farqda bilinadi. Jamoa mafkurasidagi o'zgarishlar (siyosiy sotsiologiya, psixologiya va pedagogikaning ilmiy yutuqlariga asoslangan holda) ilmiy asosda olib borilsa, targ'ibot va tashviqot samarasini, yutuq va kamchiliklarini aniqlash va takomillashtirish mumkin bo'ladi.

Olimpizm ta'limini berishdan avval ularning qanday targ'ibot usullaridan foydalanishlarini aniqlab olishimiz lozim bo'ladi.

XXI asrda insoniyat o'z taraqqiyotining sifat jihatidan yangi pallasiga qadam qo'ydi. Dunyoda katta o'zgarishlar sodir bo'layotgan bugungi kunda ijtimoiy makonni o'zlashtirishning yangi usullari, jumladan, yangi texnologiyalar keng rusm bo'ldi. Texnologiyalar asri deb atalayotgan XXI asrda ishlab chiqarishda joriy etilgan yangi texnologiyalar mehnat samaradorligini misli ko'rilmagan darajada o'stirib yubordi. Biroq yangi texnologiyalar faqat sanoat va qishloq xo'jaligida qo'llanilmayapti, balki ma'naviy, mafkuraviy va ta'lim jarayonlarida ham o'z samarasini ko'rsatmoqda.

Mamlakatimizdagi ta'limiy jarayonlarga ham shu nuqtayi nazardan yondashish olimpizm g'oyasi va ideallarini targib qilishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish zaruratini ko'rsatadi. Olimpizm ta'limini o'quvchilar ongiga singdirish muayyan texnologiya asosida olib borilganida tadbirlarning ketma-ketligi, miqyosi va me'yori, davomiyligi va tamoyillari singari jihatlar qamrab olinadi. Ularning muhimligi shunda ko'rinadiki, masalan, targibotda me'yorning buzilishi, me'yorni bilmaslik teskari samara berishi

mumkin. Targ'ibot texnologiyasi olimpizmning mazmun-mohiyatiga mos bo'lgan taqdirdagina kutilgan natijaga erishish mumkin.

Targ'ib qilinayotgan g'oyalarning inson ongida axborot, ma'lumot tarzida o'rnashishi kifoya qilmaydi, ular insonning yurak-yuragiga yetib borganidagina ular inson qalbiga chuqur o'rnashadi. Buning uchun esa auditoriya targ'ibotchisining olimpizm g'oyasiga chuqur ishonchi va qat'iyatini his qilishi kerak.

Lekin targ'ibotda g'oyalarga e'tiborni tortish bilan ham qanoatlanish mumkin emas. Chunki e'tiborni jalb qilish-targ'ibotning birinchi bosqichi xolos. Targ'ibotning keyingi bosqichi g'oyani to'g'ri va atroflicha tushuntirishni talab qiladi. Chunki olimpizmni tushunish - unga ishonish demakdir. Ana shu yerda bir savolga duch kelamiz: nima ko'proq ishonch uygotadi: jiddiy dalillar bilan asoslangan axborotmi yoki hissiyotlarni uyg'otuvchi ma'ruzami? Targ'ibot davomida insonning hislariga, qalbiga murojaat qilish katta samara beradi, albatta. Lekin ishonchli dalillar, e'tiroz uyg'otmaydigan hayotiy ma'lumotlarning keltirilishi bu g'oyalarni hayotga tatbiq qilishdan hammamiz manfaatdor ekanligimiz haqidagi fikrni uyg'otadi. Targ'ibot jarayoni shu yerda tugaydi, deb o'ylaydiganlar katta xato qiladilar.

O'zbekistonda Olimpizm ta'limini berish tajribasida ko'tarilgan masalaning muhimligi bu borada amalga oshirilayotgan ishlarni tahlil qilishga undaydi. E'tibor berib qaraydigan bo'lsak bizda "olimpizm" haqida kam gapiriladi. Lekin bizda bu vazifa o'z holiga tashlab qo'yilgan emas.

O'zbekistonda olimpizm ta'limiga asosan ikki yo'nalishda: Milliy olimpiya qo'mitasi doirasida va milliy olimpiya akademiyasi vositasida amalga oshirilmoqda.

Ko'rinib turibdiki, bizda ham olimpizm ta'limini amalga oshiruvchi maskan sifatida ta'lim muassasalari tanlangan. Chunki ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchi bilim olishdan tashqari shaxs sifatida ham shakllanadi. Lekin ta'lim tizimida targ'ibot-tashviqotdan maqsad faqat bilim berish emas, balki kishini

biror harakatga undashdan iborat ekanligini unutmasligimiz lozim. Masalaga ana shu jihatdan qaraydigan bo'lsak olimpizm ta'limini o'qitilayotgani hali uning tashviqotiga erishildi degani emas. Demak maqsadlarni aniq o'quv vazifalari shakliga keltirishimiz, olimpizm ta'limidagi asosiy g'oyalarning amaliy harakatlarga aylanishiga erishishimiz zarur.

Shu o'rinda olimpizm ta'limini o'qitishdan ko'zlangan maqsad nima o'zi, degan savolga javob izlab ko'rish lozim. Asosiy maqsad - zamon talablariga mos jismonan, ruhan va aqlan barkamol insonni tarbiyalashdan iborat. Shunday ekan, fuqarolarda qaysi sifatlarni shakllantirish evaziga mamlakatni yuksaltirish mumkinligi haqida jiddiy o'ylab ko'rish va g'oyaviy tarbiyani ana shu asosda tashkil etish lozim. Buning uchun fuqaroning istalgan modeli haqida o'ylab ko'rish, komil inson qiyofasini yaratish zarur. Xo'sh, qaysi g'oyalar davlatimizning taraqqiyoti, iqtisodiy ravnaqi va ma'naviy yuksalishiga turtki beradi? Biz yosh avlodga qaysi qadriyatlarni singdirishimiz kerak? Ularda qaysi sifatlarni tarbiyalamog'imiz darkor? Bunda, avvalo, har jihatdan faol insonni tarbiyalashga e'tibor qaratish, g'oyaviy tarbiya vositasida shaxsning salohiyatini maksimal darajada yuzaga chiqarishga erishish, har bir bolaning iqtidorini rivojlantirishga urg'u berish zarur.

Buning uchun inson passiv ijrochilikdan emas, balki faol tashabbuskorlikdan ko'proq manfaatdor ekanligiga ishontirish kerak. O'quv jarayonida bu vazifani hal qilish uchun ta'lim jarayonini "yodlash"dan xalos qilish va uni muammolarni hal qilishga yo'naltirish zarur. Shaxsning ijodiy fikrlashini rivojlantirish ham aynan shu maqsadlarga xizmat qiladi. G'oyaviy tarbiyani tashkil qilishda nazariy fikrlarga amaliy shakllar berish, bilimlarni harakatlarga aylantirish muhim sanaladi. Buning uchun pragmatik fikrlaydigan shaxsni tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi.

Ommaviy axborot vositalari g'oyaviy ta'sir ko'rsatish mexanizmlari hisoblanadi. Yoshlarda insonparvar, halol va adolatli shaxsni tarbiyalash, shaxsni

o'zi ustida qunt bilanishlashga o'rgatish, unda o'ziga ishonchni qaror toptirishdan ham manfaatdormiz.

Ommaviy axborot vositalari — eng asosiy, qudratli va ta'sirchan targ'ibot vositasidir. Chunki ommaviy axborot vositalari ommaning o'ziga xos tarbiyachisi, muhim tadbirlarning tashkilotchisi, dolzarb muammolarni hal qilishning ta'sirchan quroli bo'lib xizmat qiladi. Aynan ommaviy axborot vositalari orqali milliy qadriyatlarimiz va umuminsoniy qadriyatlar, olimpizmning insonparvar tamoyillari tashviqot va targ'ibot qilinadi.

Ta'kidlash joizki, targ'ibotning negizida faqatgina g'oyaga ishonch emas, g'oyani targ'ib qilayotgan insonga ishonch ham yotadi.

Ommaviy axborot vositalarining erkin va mustaqil faoliyat yuritishlari uchun mustahkam huquqiy asos yaratilgan, jurnalistlarni tayyorlash masalasiga davlat darajasida e'tibor berilmoqda. Ko'rinib turibdiki, ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi uchun qulay muhit yaratilgan. Hozirgi kunda mamlakatimizda olimpizm targ'iboti dolzarb masalalardan biriga aylanayotganini inobatga oladigan bo'lsak, uning targ'ibot-tashviqotiga ham yangicha texnologayalar, usullar, vositalarni jalb qilish foydadan holi emas. Olimpizm ta'limi targ'ibotining ta'sirchanligini oshirish vazifasi ham bu jarayonda yangi texnologyalarni keng qo'llash zaruratini kuchaytiradi.

Olimpizm targ'ibotida yangi texnologyalarni qo'llashda jahonning qator davlatlarida bu borada to'plangan ilg'or tajribalardan foydalanish ayni muddao bo'ladi.

Olimpizm ta'limini berish usullari, texnologiyalari, ustuvor yo'nalishlari XXI asrda insoniyat o'z taraqqiyotining sifat jihatidan yangi pallasiga qadam qo'ydi. Dunyoda katta o'zgarishlar sodir bo'layotgan bugungi kunda ijtimoiy makonni o'zlashtirishning yangi usullari, jumladan, yangi texnologiyalar keng rasm bo'ldi. Texnologayalar asri deb atalayotgan XXI asrda yangi texnologiyalar faqatgina ishlab chiqarishda emas, balki ta'lim sohasida ham joriy etilgan.

Fan, ta'lim-tarbiya, madaniyat va sportning rivojlanish darajasi mamlakat yutuqlarining ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi. Jismoniy tarbiya va sport barcha davlatlar va xalqlarning kundalik faoliyati sifatida tarkib topgan hamda ularning jahon miqyosida ijtimoiy–siyosiy, madaniy jarayonlarni o'zida ifodalovchi ijtimoiy faoliyatdir. Uning vujudga kelish va taraqqiyot yo'li uzoq davrlarni va faoliyatlarni o'z ichiga olib shu tarkibda olimpiya ta'limi ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Olimpiya ta'limi va qadriyatlarini o'rganish – “Olimpizm orqali ta'lim”, jismoniy tarbiya va sportni boshqa fanlar bilan olimpiya an'analari milliy va umuminsoniy qadriyatlarning integratsiyalash jarayoni kechmoqda.

O'quv tarbiya jarayonida olimpizm g'oyalarini tushuntirish, targ'ibot qilish olimpiada harakatini rivojlanishida asosiy o'rinni egallaydi, ular jismoniy tarbiya darslari va darsdan tashqari jarayonlarda muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotlarga ko'ra ta'lim muassasalarida olimpiya ta'limi haqidagi ma'lumotlarni o'quvchi talabalarga yetkazish, ularning samaradorligini oshirish zarurligi aniqlanmoqda.

Olimpiya ta'limi bo'yicha ko'pgina mamlakatlarda dasturlar, turli ilmiy-uslubiy manbalar yaratilgan bo'lib, olimpiya ta'limini o'rgatish va g'oyalarini targ'ibot qilishda qo'llanilib kelinmoqda.

Mamlakatimizda olimpiya ta'limini samarali tizimini yaratish uchun ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Xorijda va mamlakatimizda yaratilgan manbalarda olimpiya ta'limi va g'oyalarini targ'ibot va tashviqot qilishning samaradorligini oshirishda, gumanitar fanlar doirasida, jismoniy tarbiya va sportga aloqador tashkilotlar bilan amalga oshirish zarurligi ta'kidlangan.

Olimpizm ta'limini o'quvchi yoshlar qalbi va ongiga singdirishda jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olish, ta'lim-tarbiya, targ'ibot va tashviqotning samarali usul va vositalaridan oqilona foydalanish taqozo etiladi.

Ular: Ta'lim va tarbiya. Olimpizmni yoshlar qalbi va ongiga singdirish ta'lim tarbiyaning turli shakllari orqali amalga oshiriladi.

Bunda quyidagi vazifalar nazarda tutiladi:

- ta’lim muassasalarida o‘quvchi-yoshlarning yoshiga mos ravishda olimpizm g‘oyalari, qadriyatlari va tamoyillarini singdirishning o‘ziga xos pedagogik-psixologik dasturini yaratish;

- kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida o‘quvchi-yoshlarda olimpizm ta’limini shakllantirish ishlarini uzluksiz tarzda olib borish;

- o‘quv dasturlari, darslik va qo‘llanmalarda olimpizm ta’limini teran aks ettirish;

- maktab, litsey, kollej, institut va universitetlarda olimpizm ta’limini berishni bugungi kun talablari darajasiga ko‘tarish;

- pedagog kadrlarning olimpizm ta’limi borasidagi bilimlarini chuqurlashtirish.

Fan va ilmiy muassasalar olimpizm ta’limini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Bu borada quyidagi masalalarga asosiy e’tibor qaratiladi:

- aholining ijtimoiy xususiyatlarini (ma’lumoti, yoshi, jinsi, kasbi va boshqalar) hisobga olgan holda, olimpizm ta’limini tashkil etishning samarali yo‘llarini keng ko‘lamda ilmiy tadqiq etish;

- olimpizmning milliy, umuminsoniy, falsafiy, diniy, huquqiy, siyosiy, sotsiologik, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-psixologik asoslarini, urf-odatlar, an’analar va intellektual qadriyatlarini shakllantirish va boyitishdagi o‘rni va ta’siriga bag‘ishlangan tadqiqot ishlarini muntazam olib borish;

- olimpiya harakatining jahonshumul jarayonini o‘rganish, uning monitoringi, bu harakatning um

- umbashariy va mintaqaviy muammolarini aniqlash;

- yuqoridagilarni amalga oshirishning samarali yo‘llari haqida ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish.

Madaniyat va madaniy-ma’rifiy muassasalar olimpizmni shakllantirish va xalqimizga yetkazishda katta imkoniyatlarga ega. Bunda kutubxona, teatr, klublar, madaniyat uylari va saroylari, istirohat bog‘lari, muzeylar va boshqa muassasalar

faoliyatidan keng foydalanish, kishilar dunyoqarashini yuksaltiradigan, odamlarga ruhiy-ma'naviy oziq beradigan tadbirlar majmuini ishlab chiqish va amalga oshirish lozim. Bu dargoxlarda turli anjumanlar, davra suhbatlari, bahs-munozaralar, uchrashuvlar uyushtirish, olimpizmning mazmun-mohiyatini har bir ijtimoiy qatlamga tushunarli tarzda izohlab beradigan qo'llanma va tavsiyalar tayyorlash ayniqsa muhim.

Adabiyot va san'at. Bu sohada ijod ahlining g'oyaviy-badiiy salohiyatini olimpizm ruhida barkamol inson tarbiyasiga yo'naltirish ustuvor yo'nalish bo'lishi darkor. Ijodkorlarni qadimgi va zamonaviy olimpiya harakatining murakkab va shonli tarixining yorqin sahifalarini, uning bugungi hayot voqeligini, olimpizmning olijanob insonparvarlik g'oyalarini aks ettiradigan adabiyot, kino, musiqa va tasviriyl san'at asarlari yaratishga har tomonlama rag'batlantirish.

Yoshlarga ibrat bo'la oladigan sportchilar, qadimgi va zamonaviy olimpiya o'yinlari qahramonlari timsolini yaratish. Olimpizmning insonparvar g'oyalarini tarannum etishga, "fair play" tamoyillariga zid g'oyalarning zararli mohiyatini ochib berishga, ayniqsa, e'tiborni kuchaytirish zarur. Odamlarni jismoniy, ma'naviy va estetik tarbiyalash uchun sportni targ'ib etish, sportchi yoshlarni do'stlik va o'zaro tushunish ruhida tarbiyalash muhitning sog'lom bo'lishiga erishish.

Jismoniy tarbiya va sport sohasi insonning nafaqat jismoniy, balki ma'naviy kamolotga erishishida ham ulkan omildir. Sport irodani toblaydi, odamni aniq maqsad sari intilish, qiyinchiliklarni bardosh va chidam bilan yengishga o'rgatadi. Inson qalbida g'alabaga ishonch, g'urur va iftixor tuyg'ularini tarbiyalaydi. Vatan, xalq shuhratini dunyoga tarannum etishda, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda sportning o'rnini beqiyosdir. Sog'lom, bilimli va fidoyi farzandlari bo'lgan xalq albatta o'zining buyuk kelajagini barpo etadi. SHuning uchun jismoniy tarbiya va sportning ommaviyligini ta'minlash, uni rivojlantirish barkamol shaxsni tarbiyalashning muhim shartidir.

Oila. Oila-tarbiyaning eng muhim ijtimoiy omillaridan biri hisoblanib olimpizm g'oyalarini bolalarga yetkazishda ahamiyatlidir. Chunki oila - jamiyat negizi bo'lib, ko'p asrlik mustahkam ma'naviy tayanchlarga ega. Oiladagi sog'lom muhit — sog'lom ruhni shakllantirish manbaidir.

Mahalla. O'zini-o'zi boshqarishning milliy modeli bo'lgan mahalla xalqimizning azaliy udumlari, urf-odatlari va an'alariga tayangan holda, ulkan tarbiyaviy vazifani bajaradi. Keksalarning pand-nasihati, kattalarning shaxsiy ibрати, jamoaning hamjihatligi misolida kishilar ongiga ezgulik g'oyalari singdirib boriladi. Mahalla - avvalo, sog'lom ijtimoiy muhit maskanidir. Bu yerda kuchli ta'sirga ega bo'lgan jamoatchilik fikri mahalla ahlining xulq-atvori, o'zaro munosabatlarini adolat va ma'naviy mezonlar asosida tartibga solib turadi. Shu ma'noda mahallani demokratiya darsxonasi, deb ham atash mumkin. Mahallada keng jamoatchilik o'rtasida olimpizmning targ'ibot ishlarini samarali yo'lga qo'yish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Ayniqsa, tinchlik, osoyishtalik, o'zaro tushunish va o'zaro hurmat, tinch jamiyatni yaratish, el-yurt sha'ni uchun kurash kabi fazilatlarni kamol toptirishda mahallaning o'rni beqiyos.

Mehnat jamoalari inson umrining asosiy qismi o'tadigan, uning tafakkuri, hayotga munosabati shakllanadigan ijtimoiy-ma'naviy muhitdir. Ular kishida jamoa ruhi, mehnatsevarlik, omilkorlik, adolat tushunchasi, mehr-oqibat tuyg'ularini tarbiyalaydigan o'ziga xos maskan bo'lib hisoblanadi. Mehnat jamoalari turli millat va dinga mansub odamlarni do'stlik va hamjihatlik, o'zaro manfaatdorlik, o'zaro tushunish va o'zaro hurmat, tinch jamiyatni yaratish asosida hamkorlik qilish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirishga o'rgatadi. Bu esa o'z navbatida sog'lom ma'naviy muhitni vujudga keltirishda muhim omil vazifasini bajaradi.

Mamlakatimiz ijtimoiy hayotida faoliyat ko'rsatayotgan nodavlat notijorat tashkilotlar olimpizm targ'ibotida ishtirok etishi zarur. Respublika Milliy olimpiya qo'mitasi, Olimpiya akademiyasi bu boradagi amaliy ishlarni muvofiqlashtirib borishi, shuningdek, Oila ilmiy-amaliy markazi, Faylasuflar jamiyati, Ijtimoiy fikr

jamoatchilik markazi kabi tashkilotlar olimpizmning asosiy maqsadalarini targ'ibot etishda muhim o'ringa ega. Shuningdek, olimpizm targ'ibotini joriy etishga moddiy, tashkiliy va ma'rifiy jihatdan ko'mak beradigan "Sog'lom avlod", "Kamolot", "Oltin meros", "Amir Temur", "Iste'dod", "Mahalla" jamg'armalari va boshqa jamoat tashkilotlari ham katta imkoniyatlarga ega.

Ommaviy axborot vositalari jamoatchilik fikrini shakllantirish, olimpizmning insonparvar g'oyalarini xalqimiz, avvalo, yosh avlod ongiga singdirishda alohida o'rin tutadi. Ular ma'naviy-ma'rifiy islohotlar jarayoni, bu boradagi muammolarni, jamiyat hayotining turli qirralarini tezkorlik bilan aks ettiradigan eng samarali vositadir. "To'rtinchi hokimiyat" hisoblangan ommaviy axborot vositalari turli xil fikrlar, rang-barang qarash va yondashuvlarga keng yo'l ochib berishi, hayotimizda yuz berayotgan yangilanish va o'zgarishlarga odamlarning ongli munosabatini uyg'otishi, xolislik va haqqoniyat tamoyillariga tayanib faoliyat yuritishi lozim. SHunga e'tiborni qaratish lozimki, bular olimpizm targ'ibotini amalga oshirishda o'ziga xos alohida subektlardir. Shuning uchun, ular o'z faoliyatida bevosita amalga oshirish lozim bo'lgan vazifalarni amalga oshirish bilan birga olimpizmni targ'ibot texnologiyalaridan bu xususiyatlarni hisobga olgan holda tashkil etishda muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish shu sohalarning rivojlanishiga hamda olimpizm targ'iboti texnologiyalari bilan mos kelishiga ko'maklashadi.

Targ'ibot texnologiyasi olimpizmning mazmun-mohiyatiga mos bo'lgan taqdirdagina kutilgan natijaga erishish mumkin. O'zbekistonda olimpiya ta'limi jarayonlarini tashkil etishning ustuvor yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- belgilangan tadbirlarning yuqori darajada uyushqoqlik bilan erkin, demokratik tarzda o'tkazilishini ta'minlash;

- olimpizm targ'ibotining sifatini zamonaviy uslublar asosida muntazam oshirib borish;

- davr talablaridan kilib chiqqan holda targ'ibot ishlarni tashkil etishning yanada yangi, samarali yo'llarini izlash;

–an'anaviy uslublarning mutlaqlashtirilishiga, andozalashtirishga yo'l qo'ymaslik, uni zamonaviylashtirish;

–targ'ibot jarayonlarini tashkil etishda ijtimoiy muhitni, mavjud muammolarini hisobga olish;

–ushbu jarayonlarni tashkil etishda uchraydigan rasmiyatchilik ko'rinishlariga barham berish;

–targ'ibotning faoliyat texnologiyalarini qanchalik samarali olib borilayotganini bilish maqsadida uning monitoringini tashkil etish.

Olimpizm ta'limining targ'ibot-tashviqotini tashkil etishda quyidagi texnologiyalar va tashkiliy tamoyillarga amal qilinishi maqsadga muvofiq:

- keng qamrovlilik, bunda jamiyatning barcha a'zolariga g'oyalar xilma-xilligi asosida olimpizmni singdirish, bu jarayonda aholining barcha qatlamlarini qamrab olish nazarda tutiladi;

- umumiy maqsadga yo'naltirilganlik;

- insonni tarbiyalash va inson salohiyatini yuzaga chiqarish, Kubertinning "Rivojlangan tanada yuksak ruh!" shioriga to'liq mos keladigan ko'p qirrali va har tomonlama rivojlangan olimpiya sportchisini tayyorlash olimpizmning bosh maqsadi qilib olinadi;

- uzluksizlik - olimpizm targ'ibotining makonda va zamonda doimiyligini, uning yaxlit tizim shakliga keltirilishini anglatadi. Uzluksizlik tamoyili olimpizmning o'quvchi yoshlar ongiga singdirish uchun mamlakatda muayyan ta'lim maydoni yaratishni taqozo qiladi. Bu maydondagi har bir holat va harakat, jumladan, ta'lim tizimidagi o'quv rejalari, dasturlar, darsliklar, o'quv qo'llanmalari, sinf va auditoriyalar, ko'rgazmali qurollar olimpizmga uyg'un bo'lishini taqozo etadi.

- ketma-ketlik - har bir bosqich uchun olimpiya qadriyatlarni singdirish maqsadida olimpizm tashviqoti rejalashtiriladi;

- bosqichma-bosqichlik - olimpizmni targ'ib qilishning ruhiy jihatlari bilan bog'liq bo'lib, ham targ'ib qiluvchi, ham qabul qiluvchining muayyan tayyorgarlik

bosqichlaridan o'tishini taqozo qiladi. Aytaylik, boshlang'ich sinf o'quvchisiga olimpizmning falsafiy va tarixiy ildizlari to'g'risida gapirish noo'rin bo'lishdan tashqari mutlaqo samarasiz hamdir. Shuning uchun bog'chada, boshlang'ich ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, litsey va kollejlar, oliy o'quv yurtlari va mehnat jamoalarida olimpizm ta'limi va tarbiyasi o'quvchilarning yoshi, bilimi, ma'lumoti kabi jihatlarini hisobga olib borilishi kerak;

- meyoriylik - aksiltarg'ibotni keltirib chiqaradigan, hayotdan uzilib qolishga olib keladigan balandparvozlik, rasmiyatchilik va takrorlanishlarga yo'l qo'ymaydi;

- shaxsiy ibrat - olimpizmni targ'ib qilishda muvaffaqiyatni ta'minlaydigan muhim omillardan biri. Maktab muallimi darsda o'quvchilarga millat manfaatlari, orzu-umidlari, xalqlarning tinchlikka intilishlari, "fair play" tamoyillari to'g'risida balandparvoz gaplarni gapirsa-yu, o'zi hayotda shularga zid ishlarni qilsa, bu targ'ibotning samarasi nolga teng bo'ladi.

- ilg'or targ'ibot-tashviqot texnologiyalaridan foydalanish - bunda olimpizm targ'ibotiga insonlarni mohirona boshqarish usuli sifatida qaraladi. Olimpizm ta'limining targ'iboti qotib qolgan narsa emas, faol jarayondir. Shuning uchun uni qadimdan qolgan va'z aytish va ma'ruza o'qish kabi targ'ibot shakllari yordami bilangina o'quvchi yoshlar ongiga singdirib bo'lmaydi. Maqsadga erishish uchun targ'ibotning faol shakllaridan, zamonaviy texnologiyalardan ham foydalanish maqsadga muvofiq.

O'quvchi yoshlar orasida targ'ibot olib borilganda munozara, bahs, davra suhbatlari kabi shakllardan oqilona foydalanilsa maqsadga tezroq va to'laroq erishish mumkin. Yoshlarning fiziologik va ruhiy xususiyatlari va'z va ma'ruzalarni emas, ko'proq interfaol usullar va sanab o'tilgan targ'ibot shakllaridan foydalanishni taqozo qiladi. Mazkur targ'ibot tamoyillari olimpizmni o'quvchi yoshlar ongiga singdirishning barcha bosqichlari uchun umumiy va bir xildir. Turli bosqichlarda, turli shakl va vositalardan foydalanganda o'quvchi yoshlarning pedagogik

hususiyatlari kabi omillarni olimpizmni ularning ongiga singdirishda e'tiborga olish zarur va muhim.

XXI asrni axborot asri, axborot texnologiyalari asri deb atash tobora rusum bo'lmoqda. Chunki asrimizda keng qamrovda va jadal sur'atlarda tarqalayotgan informatsiyalar insonning istaklarini, didini o'zgartirishga, fikriga ta'sir qilishi mumkin. Tan olish kerak, tomosha qilinayotgan seriallardan tortib bolakaylarga aytib beriladigan ertakkacha, boringki, o'qiyotgan kitoblarimiz ham qandaydir mafkuraviy ta'sir samarasiga ega - ularda muayyan g'oyalar targ'ib qilinadi. Bu holat «Eng asosiy narsani ko'z bilan ilg'ab bo'lmaydi» degan fikrni yana bir karra tasdiqlaydi. Bunday ko'zga ko'rinmas qudratli targ'ibot kuchlari kishini hamma yerda va har kuni qurshab turadi. Bu kuchlarning maqsadi – insonni nimagadir ishontirish, nimagadir undash, nimagadir og'dirishdir. Tadbirkor mahsulotini reklama qilib, uni sotib olishga undaydi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlarning taqdiri, so'zsiz, har bir fuqaro, aniqrog'i insonning faolligiga bog'liqdir. Bu esa islohotlarning mohiyatini tushuntirishni talab qiladi.

O'zbekistonda komil inson g'oyasida e'tirof etilgan erkin shaxsga mos sifatlarini fuqarolarda qaror toptirish, insonparvar yo'nalishdagi hissiyotlar va tajribalar tizimi (Olimpiya harakatining muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun; estetik sport go'zalligi hissi, har qanday axloqiy buzuvchilik bilan bog'liq qayg'u hissi sportda va insonparvarlik qadriyatlarini sporti orqali amalga oshirilishi uchun shaxsiy mas'uliyat hissi) va boshqa vazifalarni amalga oshirish muhimdir. SHuning uchun ham mafkuraviy targ'ibot texnologiyalaridan foydalanishda:

- Targ'ibotning xolisligi;
- Sog'lom, ezgu maqsadlarni ko'zlash;
- Bir tomonlama maqsadlardan xoli bo'lish;
- Xalqlarning milliy-madaniy qadriyatlariga hurmat bilan qarash;
- Demokratik tamoyillar, inson erkinligi huquq va manfaatlarini ustuvor deb bilish;

- Xalqlar o'rtasida Olimpiya o'yinlari va Olimpiya harakati haqidagi, ularning tarixi, maqsadlari, vazifalari, olimpizmning asosiy g'oyalari va qadriyatlari haqidagi (shu jumladan «Fair Play» tamoyillari, barkamol rivojlangan olimpiya sportchisining ideallari va boshqalar haqida);

- sportga bo'lgan qiziqish, muntazam sportga bo'lgan ehtiyoj, imkon qadar yuqori sport natijalari ko'rsatishga intilish;

- sportning bunday yo'nalishi, avvalambor, jismoniy madaniyatni shakllantirishning eng muhim vositalaridan biri bo'lib, u sog'lom turmush tarzining bir qismi sifatida, shuningdek estetikaning, axloqning, madaniyatning namoyishi, insonlarning insonparvarligi bir-biriga va tabiatga munosabati, insonning jismoniy va aqliy qobiliyatini nazorat qilishga va boshqalarga ta'sir ko'rsatish;

- Pul topish shuhrat qozonish uchun emas, balki sog'lom turmush tarzi uchun faol sportga bo'lgan ehtiyoj, ularning jismoniy va ma'naviy (intellektual, ma'naviy, estetik) qobiliyatlarini uyg'unlashtirish, har tomonlama rivojlantirish

- Olimpiya o'yinlariga qatnashishga intilish va ularda vijdonan, oliyjanob, mardonavor o'yin ko'rsatish (adolatli o'yin tamoyillariga muvofiq);

- faqatgina bir tomonlama rivojlangan sportchi emas, rekord egasi emas, balki Kubertinning "Rivojlangan tanada yuksak ruh!" shoriga to'liq mos keladigan ko'p qirrali va har tomonlama rivojlangan olimpiya sportchisini tayyorlash;

- Fikr erkinligini hurmat qilish asosida fikriy mushtaraklik, hamjihatlik g'oyalarini targ'ibot etish muhim ahamiyatga ega.

2.2. Olimpiya ta'limining shakllari va metodlari

Hozirgi kunda bolalar va yoshlarga olimpiya ta'limini berish amaliyotida, faoliyat olib borishning keng doiradagi, turli-tuman shakllari va metodlari qo'llanib kelinmoqda.

Dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida amalga oshiriladigan mazkur pedagogik faoliyatdagi markaziy o'rinni olimpiada harakati, olimpiya timsollari va

qadriyatlari (masalan, Feyr Pley (adolat ramzi)ni izohlash va targ'ib qilish egallaydi).

Ushbu axborot berish va tushuntirish ishlari, birinchi navbatda maktablar, oliy o'quv yurtlari va boshqa ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayonida, avvalo bevosita jismoniy tarbiya va sport sohasiga bog'liq o'quv predmetlari tizimida amalga oshiriladi. Bu yerda asosiy e'tibor, olimpiada mazusiga oid bahs va munozaralar tashkil etish, o'tkaziladigan suhbatlar jarayonida yuzaga keladigan turli qarashlar va yondashuvlarni tahlil qilishga qaratiladi.

Rossiyada bolalar va yoshlarning olimpiya ta'limi olish uchun, maxsus tashkil etiladigan quyidagi mashg'ulotlar keng ommalashgan:

- “olimpiada darslari”;
- “olimpiada bilimlari darslari”;
- “olimpiyachilik darslari”;
- “olimpiada soatlari” va boshqalar.

So'nggi yillarda olimpiya ta'limini tashkil etishning istiqbolli shakli sifatida, yangi texnika va texnologiyalarni qo'llashga asoslangan masofaviy ta'lim ommalashib bormoqda.

Olimpiyachilik g'oyalarini targ'ib qilish va singdirishda, jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari va trenerlar muhim o'rinni egallaydilar.

Olimpiya ta'limi va XOA bo'yicha XOK komissiyasining 1-simpoziumi (5-10 may 1995 yil) ishtirokchilari bir ovozdan shu xulosaga kelishgan. SHunga ko'ra, XOA har yili jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari va trenerlar uchun, olimpiya ta'limini tashkil etish metodikasi bo'yicha maxsus kurslar o'tkazadi. Simpozium ushbu kurslarni milliy darajada, Milliy olimpiya akademiyasi tanlab olgan olimpiya ta'limi mutaxassislari rahbarligi ostida maktablar tashkil etish va ularda o'tkazishga tavsiya beradi. Shu bilan birga, xalqaro sport federatsiyalari olimpiya ta'limiga oid masalalarni o'z rejalariga kiritishlari va har bir federatsiya doirasida shug'ullanadigan kishilarni belgilashlari ta'kidlanadi.

Keyingi yillarda bolalar va yoshlarga olimpiya ta'limi berishda nafaqat jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari, balki trenerlar, tibbiyot xodimlari, sport musobaqasi tashkilotchilari, xakamlar va ommaviy axborot vositalari xodimlari ham faol ishtirok etishi ko'zda tutilmoqda.

Ko'plab olimlar va mutaxassislarning fikricha, olimpiya g'oyalarini tushuntirish va targ'ib qilish ishining samaradorligini oshirish uchun, uni faqat jismoniy tarbiya va sport sohasiga aloqador o'quv mashg'ulotlaridagina emas, balki boshqa o'quv sohalari, ayniqsa gumanitar, masalan, tarix, adabiyot, tasviriy san'at, jahon badiiy adabiyoti, etika, estetika, geografiya, sotsiologiya kabilarda ham o'tkazish mumkin.

Olimpiya ta'limiga mana shunday fanlararo yondashuvning zarurligi masalasiga MOA ning 18-sessiyasida (1979 yil) X.A.Samaranch o'z e'tiborini qaratgan edi. U o'zining "Olimpiyachilik jamiyatning turli sohalarida" nomli ma'ruzasida, faqat jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari emas, ular bilan birgalikda geografiya, matematika, fizika va boshqa o'quv predmeti o'qituvchilari ham o'quvchilar bilan muloqotga kirishishga tayyor bo'lishlari, olimpiadaning "sportcha ruh"ini, ayniqsa "olimpiada axloqiga mos keladigan xulq namunalari"ni tushuntirib berishlari va targ'ib qilishlari talab etiladi.

Rossiyada olimpiya ta'limini tashkil etishda ushbu yondashuvga katta ahamiyat berib kelinmoqda. Hammaga ma'lumki, olimpiya g'oyalarini yoyish va targ'ib qilishda o'qish davridan emas, o'qishdan tashqari vaqtlardan ham unumli foydalanish mumkin. Amaliyotda ana shunday ishlarning rang-barang shakllari sinovdan o'tkazilgan:

- olimpiya kuni;
- olimpiada ramzini tayyorlash, filmlar va slaydlar namoyish etish;
- olimpiya harakatiga oid rasmlar va fotolar tanlovini o'tkazish;
- sport va olimpiada mavzusiga oid teatrlashgan sahna ko'rinishlari tayyorlash;
- devorga ishlangan ko'rgazmalar, rasmlı vitrinalar va "olimpiya zali".

- olimpiada mavzusiga doir ma'ruzalar, seminarlar, munozaralar, konferentsiyalar hamda viktorinalar o'tkazish, Olimpiada o'yinlariga bag'ishlangan kitoblar va filmlarni muhokama qilish;

- “Olimpiya harakati bilimdonlari” tanlovi;

- taniqli sportchilar, Olimpiada o'yinlari ishtirokchilari va terma jamoa murabbiylari bilan uchrashuvlar o'tkazish;

- Olimpiya klublari va muzeylari tashkil etish (maktab, oliy o'quv yurti, shahar va hokazo);

- bolalar va yoshlar olimpiya lagerlari bazasida olimpiya ta'limini tashkil etish;

- olimpiya harakati muammolari bilan qiziqadigan boshqa mamlakat o'quvchilari, talabalari va sportchilari bilan yozishmalar tashkil etish.

Eng ommalashgan tadbirlardan biri, sport va olimpiada mazuziga doir rasmlar va insholar tanlovi xisoblanadi. Ancha oldin, 1972 yilda Germaniyada bo'lib o'tgan Olimpiada o'yinlarida “Sport mening mamlakatimda” mavzusi ostida, bolalar o'rtasida xalqaro rasmlar tanlovi tashkil etilgan. Tanlovga 67 ta mamlakatdan 18 mingta ishlanma jo'natilgan. Saralab olingan 700 ta rasmlar ishlanmasi maxsus tashkil etilgan ko'rgazmada ishtirok etgan. 1988 yilda Germaniya MOQ maktab o'quvchilari uchun “Olimpiada o'yinlari – men ularni qanday ko'raman” mavzusida badiiy tanlov tashkil etgan. Ushbu tanlovda Germaniyadagi 776 ta maktabdan 14425 nafar o'quvchilar(5-sinf) ishtirok etganlar. Shunga o'xshash rasmlar tanlovi Koreya, Rossiya, Ruminiya Milliy olimpiya qo'mitalari tomonidan ham o'tkazilgan. AQSH da 7-12 yoshli bolalar o'rtasida olimpiya mavzusiga oid insholar tanlovi tashkil etilgan.

Olimpiya g'oyalarini targ'ib etishda olimpiada mavzusidagi adabiyotlarni chop etish muhim rol o'ynaydi.

Gretsiya jismoniy tarbiya qo'mitasi bosh inspektori T.Karatassakis, Olimpiada o'yinlari g'oliblari hamda qadimgi va zamonaviy atletlarning xayotdagi, sport musobaqalaridagi unutilmas jasoratlariga bag'ishlangan nasriy(prozaik) va

nazmiy(poetik) asarlardan olingan matnlar va esselar ushbu maqsadga mos keladi deb xisoblaydi.

Bolalar va yoshlarga olimpiya ta'limi berishda faqat adabiyotlarning o'zidagina emas, slaydlar, filmlar va videomateriallardan ham keng miqyosda foydalanish tavsiya etiladi. El Tvitchellning (AQSH) xisoblashicha, olimpiya g'oyalari bo'yicha ta'lim berishda quyidagilardan foydalaniladi:

- Olimpiada o'yinlari tarixi;
- olimpiya atletlarining qiyinchiliklarni yengib o'tishdagi kurashlaridan yozib olingan materiallar;
- Olimpiada ishtirokchilarining hissiy kechinmalari aks etgan filmlardan lavhalar;
- sportchilar oldiga qo'yilgan vazifalar, ularning trenirovka mashg'ulotlari to'g'risidagi, hamda ommaviy axborot vositalarida olimpiada muammolarining yoritilishi bo'yicha hikoyalar;
- inson tanasining harakatlanish qonuniyatlari, raqs san'ati haqidagi filmlar;
- mardlik, jasurlik, dadillik, qat'iyatlilik, sadoqatlilik haqida hikoyalar.

So'nggi yillarda maktab o'quvchilari uchun olimpiya ta'limini yana bir yangi shakli, olimpiada mavzusidagi videokonferentsiyalar o'tkazilmoqda.

Bolalar va yoshlarga olimpiya ta'limi berish masadida olib boriladigan axborot beruvchi, tushuntirish ishlaridan bilan bir qatorda amaliy tadbirlar ham amalga oshiriladi. Bu avvalo o'quvchilarning o'zlari tayyorlagan olimpiada ramzi ostida sport musobaqalari tashkil etish va olimpiya taomillari(olimpiada olovini yoqish, olimpiada qasamyodini qabul qilish, olimpiada bayrog'ini ko'tarish)ga amal qilishlarini ko'zda tutadi.

Ko'plab mamlakatlarda(ayniqsa yozgi va qishki Olimpiada o'yinlariga bog'liq tarzda) bolalar, o'smirlar va yoshlarning "Kichik Olimpiada o'yinlari", "Olimpiada millari" va shu kabi olimpiya musobaqalari o'tkaziladi, ularning ayrimlari xalqaro maqomni olgan. Xususan, 1968 yildan o'quvchilarning Xalqaro sport o'yinlari o'tkazib kelingan, 1991 yildan esa – o'smirlarning Yevropa

olimpiya kunlari. 1998 va 2002 yillarda Moskvada o'smirlarning butunjahon sport o'yinlari bo'lib o'tdi.

Avstriya, Germaniya, Rossiya va ayrim boshqa davlatlarda, olimpiya ta'limini tashkil etishning darsdan tashqari shakli, ya'ni Olimpiada kunlaridan ham foydalanib kelinadi. Ular ko'proq Olimpiada o'yinlari paytida, unga bog'liq holda amalga oshiriladi. Aynan o'sha kunlari maktab o'quvchilari o'rtasida Olimpiada ruhidagi sport musobaqalari o'tkaziladi. Tadbir davomida ular sport o'yinlari va olimpiada harakatiga doir ma'ruzalar tinglaydilar, o'zaro fikr almashadilar.

Shunday qilib, maktablarda olimpiya ta'limini tashkil etishning bir necha variantlarini qo'llash mumkin:

- maktab o'quv dasturi asosidagi olimpiya ta'limi;
- olimpiya ta'limi bo'yicha qo'shimcha darslar;
- olimpiya ta'limini predmetlararo bog'liqlik orqali ro'yobga chiqarish;
- olimpiya ta'limini sinfdan tashqari ish olib borishning turli usullari va shakllari orqali tashkil etish.

Olimpiya ta'limini tashkil etish uchun, ko'plab mamlakatlarda kino va videofilmlarni qo'shgan holda turli metodik materiallar tayyorlangan.

Olimpiya ta'limining ayrim dasturlari Olimpiada o'yinlari bilan bevosita bog'liq. Ilk dastur 1976 yil Kanadada ishlab chiqilgan. Keyinchalik shunday dasturlar AQSH(1984) va Germaniya(1988, 1992, 1994) Milliy olimpiada akademiyalari tomonidan, Kalgari(1988), Albervill(1992), Lillexammer(1994), Melburn(1996), Sidneyda(2000) Olimpiada o'yinlari Tashkiliy qo'mitasi buyurtmasiga asosan bir guruh pedagoglar tomonidan ishlab chiqilgan.

Rossiyada ham shunday dastur, 2014 yilda Sochida o'tkazilgan qishki Olimpiada o'yinlari o'tkazilishi munosabati bilan amalga oshirilgan.

Bir qator mamlakatlarda bolalar va yoshlarga olimpiya ta'limi berishning kompleks dasturlari yaratilgan. 1993 yilda bir guruh Kanadalik mutaxassislar Diana Binder rahbarligi ostida XOA ga, "Sen va Olimpiya o'yinlari" deb

nomlangan, maktab o'quvchilariga olimpiya ta'limi berish xalqaro dasturi loyihasini taqdim etadi.

Dastur maktab pedagoglari oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi:

- maktab o'quvchilarining harakat faolligini oshirishdagi ommaviy ishtirokini rag'batlantirish, ularning har biriga jismoniy tayyorgarlik va jismoniy sog'lomlikning maqbul darajasini egallashlariga ko'maklashish;

- sportni tarbiya vositasi sifatida qo'llash, birgalikdagi faoliyat va hamkorlikning umumiy maqsadga erishishdagi ahamiyatini ta'kidlash;

- "Feyr Pley" va "sport ruhiyati" ta'limi;

- badiiy qobiliyatlarni tushunish va rag'batlantirish vositasi sifatida madaniy aloqalarni qo'llab-quvvatlash;

- o'zaro bir-birini tushunish va sabr-toqatni quvvatlash. Ko'plab maktablarning o'quv dasturiga boshqa madaniyat namunalarining kiritilishi. Turli millatlar madaniyatini e'tirof etish va irqchilikdan voz kechish;

- mukammallikka erishishni rag'batlantirish, ko'p hollarda asosiy e'tibor o'qishdagi natijalarga qaratiladi. Hozirgi kunda esa bolaning har tomonlama rivojlanishini e'tiborga olish va unga ko'maklashish maqsadga muvofiqdir.

Ushbu vazifalarni hal etish uchun ta'limning quyidagi shakl va usullaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Dastlab, suhbat shaklidagi axborot beruvchi, tushuntirish ishlari olib boriladi, ushbu jarayonda kino va videomateriallardan foydalaniladi. Mazkur ishni amalga oshirishda o'qituvchilar uchun metodik materiallar tayyorlanadi, materiallar 5 ta blokka (olimpiadaning beshta xalqasini nazarda tutgan holda) taqsimlanadi.

1. Qadimgi Olimpiya o'yinlari: Olimpiya o'yinlarining tarixi, an'analari, ramzlari va marosimlari.

2. Zamonaviy Olimpiya o'yinlari: zamonaviy Olimpiada o'yinlari tarixi va falsafasi; P'yer de Kuberten va olimpiya timsollari.

3. Olimpiada dunyosi: dunyo xalqlarini bilish. tushunish va baholashga ko'maklashuvchi ma'lumotlar.

4. Olimpiada sport turlari: a)sportning yozgi turlari; b)sportning qishki turlari.

5. Sportchi-olimiyachi: olimpiadada ishtirok etgan va sovrinli o‘rinlarni qo‘lga kiritgan taniqli sportchilar haqida ma’lumotlar; olimpiadachi-sportchilarning hayoti va faoliyati haqida fikr-mulohazalar. Maktabda kichik Olimpiada o‘yinlari, Olimpiya kunlari kabi sport tadbirlari stsenariysini tuzish va o‘tkazish.

Rossiyada bolalar va yoshlarga olimpiya ta’limi berishning spartiancha dasturi 1990 yilda ishlab chiqildi va 1991 yildan deyarli amaliyotga tatbiq etib kelinmoqda. Mazkur dastur ma’lumot berish, tushuntirish ishlarini olib borishdan tashqari ta’lim berishning innovatsion shakllari va metodlarini ham ko‘zda tutadi: sport va san’atni uyg‘unlashtirishga asoslangan Sparta o‘yinlarini tashkil etish, Sparta klublari va maktablarini ochish, yuksak axloqiy sifatlari uchun maxsus mukofotlar topshirish, shaxsni barkamol qilib voyaga yetkazish.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilganlardan tashqari, bolalar va yoshlarga olimpiya ta’limi berishning yangi hamda samarali shakllari va usullarini doimiy ravishda izlab topish ustida ish olib borilmoqda.

2.3. Olimpizm targ‘ibotining tashkiliy tuzilmalari

Xalqaro olimpiya akademiyasi. Xalqaro olimpiya qo‘mitasi tizimida ikkita mustaqil tashkilot xalqaro olimpiya akademiyasi va olimpiya muzeylari faoliyat yuritadi, ular olimpiya ta’limi muommolari bilan shug‘ullanadi. Olimpizm asoschisi frantsuz pedagogi Per de Kuberten o‘zining chiqishlari va ma’ruzalarida “Olimpiya ta’limi” markazini yaratish zaruriyati haqida ko‘p marta takrorlagan. U yerda har qanday mamlakatning yoshlari olimpizm tamoyillari bilan shug‘ullanmaslikni iloji yo‘q deb ta’kidlaydi.

1926-yili bo‘lib o‘tgan olimpiya kongressida Gretsiya Milliy olimpiya qo‘mitasi bosh kotibi Jon Ketseas Gretsiyada ilmiy markaz tashkil etishni, bir yildan so‘ng P’er de Kubertenni Gretsiyaga tashrifi chog‘ida olimpiya madaniyat markazini tashkil etish masalasini muhokama qilishadi.

1934-yili xalqaro olimpiya qo‘mitasining navbatdagi sessiyasi gretsiyaning Afina shahrida bo‘lib o‘tganda olimpiya ta’limiga katta e’tibor qaratilgan edi.

Ayni chog‘da gretsiyaning moliyaviy sharoiti nochorligi va ikkinchi jahon urishi boshlanishi bu g‘oyani amalga oshirish uchun imkon bermadi, shu sababli Korl Diam xalqaro olimpiya akademiyani AQSH hududida tashkil etish taklifini kiritdi va bu taklifini xat orqali XOQ vitseprezidenti Yevri Brendetjiga jo‘natdi. Biroq Djon Ketseas 1947-yili Stokgolmda o‘tkazilgan XOQ 40-sessiyasida xalqaro olimpiya akademiyasini tuzish loyihasi haqidagi fikrlarini sessiya qatnashchilarga havola qildi va himoya qildi. So‘ng Italiyaning Rim shahrida bo‘lib o‘tgan XOQning sessiyasida ushbu taklif bir ovozdan qabul qilinib, tashkiliy ishlar Gretsiya milliy olimpiya qo‘mitasi jamoasiga yuklatildi.

Olimpizm asoschisi frantsuz pedagogi Per de Kuberten o‘zining chiqishlari va ma’ruzalarida “Olimpiya ta’limi” markazini yaratish zaruriyati haqida ko‘p marta takrorlagan. U yerda har qanday mamlakatning yoshlari olimpizm tamoyillari bilan shug‘ullanmaslikni iloji yo‘q deb ta’kidlagan.

Evropa mamlakatlarida 1960 yildan boshlab olimpiya ta’limi bilan shug‘ullanuvchi tuzilmalarni yaratishga urinish bo‘lgan.

Xalqaro olimpiya akademiyasi milliy olimpiya akademiyalari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi hisoblanib, taklif etilgan dasturlar yoshlar faoliyati chet tillari, madaniy an’analar va qadriyatlarni o‘rganish, dunyoviy muammolar, jamiyat, ekologiya, iqtisod, sog‘lom turmush tarziga e’tiborini qaratish va ta’limga yo‘naltirishdan iborat bo‘ladi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, Xalqaro olimpiya akademiyasi o‘z faoliyatida xalqaro tadqiqotlar markazi ma’lumotlariga tayanadi va milliy olimpiya akademiyalari bilan mustaxkam aloqada bo‘ladi va olimpiya harakatining muhim masalalarini o‘rganish bilan shug‘ullanadi.

Milliy olimpiya qo‘mitalari ta’lim muassasalari va umumiy ta’lim maktablarining o‘quv jarayonini yetarli darajada axborot bilan ta’minlamagan, shu

sababli har bir mamlakatning milliy olimpiya qo‘mitasi milliy olimpiya akademiyasiga ehtiyoj sezmoqda.

Birinchi bo‘lib milliy olimpiya akademiyasi 1968-yilda Ispaniyada tashkil topdi. O‘zbekistonda milliy olimpiya akademiya mustaqillikning dastlabki yillarida 1993-yil 18-aprelda tashkil etildi.

Olimpiya akademiyasi faoliyati doirasida keng aholi o‘rtasida asosan maktab o‘quvchilari va yoshlarni sog‘lom turmush tarzi bilan munosabatda bo‘lishi olimpiya ta’limi dasturini amalga oshirish, olimpiya mavzulari bo‘yicha tadqiqot ishlarini olib borish, aholi o‘rtasida olimpizm g‘oyalari va tamoyillarini takomillashtirish va tarqatish ishlari amalga oshiriladi.

Milliy olimpiya akademiyasi o‘zinig faoliyatida Xalqaro olimpiya qo‘mitasi va Xalqaro olimpiya akademiyasi, sport turlari bo‘yicha milliy federatsiyalar, turli yo‘nalishdagi oliy o‘quv yurtlari bilan hamkorlik qiladi va olimpizm g‘oyalarini amalga oshirishdir. Uni amalga oshirishda olimpiya ta’limi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u haqda turlicha fikrlar ilgari surilgan.

XOA asosiy e’tiborni ta’lim dasturi bo‘yicha birinchi navbatda o‘quvchi yoshlarga olimpiya ta’limini berish muammolariga qaratadi.

SHuni aloxida ta’kidlash lozimki, xalqaro olimpiya akademiyasi faoliyati jarayonida xalqaro tadqiqotlar markazi ma’lumotlariga tayanadi. Akademiya markaz bilan mustaxkam aloqada bo‘lib olimpiya harakatining muhim masalalarini o‘rganish bilan shug‘ullanadi.

Xalqaro olimpiya akademiyasi milliy olimpiya akademiyalari faoliyatining koordinatori bo‘lib hisoblanadi. Taklif etilgan dasturlar, yoshlar faoliyatini, chet tillari, madaniy an’analar va qadriyatlarni o‘rganish, dunyoviy muammolar, ekologiya, iqtisod, siyosatga jamiyat e’tiborini qaratish, sog‘lom turmush tarzi va ta’limga yo‘naltirishdan iborat bo‘ladi.

Xalqaro olimpiya akademiyasi (XOA) 1961 yilda tashkil qilindi. Bu olimpiya harakati g‘oyalari, jismoniy tarbiya hamda sport nazariyasi va amaliyotini o‘rganish hamda targ‘ib qilish buyicha ixtisoslashgan muassasa bo‘lib, XOQ

rahbarligi ostida harakat qiladi hamda Gretsiya (Yunoniston), MOQ tomonidan moliyaviy ta'minlanadi. XOA manzili — Olimpiyadir. U jahon davlatlarining 74 ta olimpiya akademiyalarini tan olgan. Uning faoliyati XOQning maxsus komissiyasi tomonidan boshqarib boriladi va nazorat qilinadi.

Qadimiy Olimpiyada joylashgan Xalqaro olimpiya akademiyasi binosi 500 kishilik zamonaviy va to'liq jihozlangan auditoriya, 250 kishilik umumiy taqdimot xonalari, 5 ta o'quv xonasi, 16000 dan ortiq kitob nashrlari bo'lgan kutubxona, bir va ikki kishi uchun restoran va turar joylar xonasidan iborat. Shuningdek, dam olish sharoitlari, dush va hammomli sakkiz kishilik yotoqxona mavjud. Turar joylari sodda bo'lib, mehmonni tabiat, ta'lim va tadqiqot bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqada birlashtiradi.

XOA har yili haftalik sessiyalar tashkil qilib turadi. Ularning dasturidan falsafa va sportning mafkuraviy muammolari, olimpiya harakati tarixi, sport trenirovkasi va jismoniy tarbiyaning nazariy hamda usuliy masalalari buyicha ma'ruzalar va seminarlar joy olgan.


Ushbu sessiyalarga MOQ yetakchi olimlari, trenerlar, jismoniy tarbiya o'kituvchilari, talabalar, aspirantlar, sportchilarni — umumiy soni 4000 dan ziyod kishilarni yuboradi.

Ma'lumotlarga ko'ra milliy olimpiya qo'mitalari o'quvchi yoshlar uchun ta'lim tizimini olimpiya ta'limi bo'yicha yetarli darajada axborot bilan ta'minlamagan, shuning uchun har bir mamlakatning milliy olimpiya qo'mitalari, milliy olimpiya akademiyalariga extiyoj sezadi.

1960-yildan boshlab Yevropaning yirik mamlakatlarida olimpiya ta'limi bilan shug'ullanuvchi tuzilmalarni yaratishga urinish bo'lgan.

Birinchi milliy olimpiya akademiyasi 1968-yili Ispaniyada tuzilgan bo'lsa, 1976-yili AQSH milliy olimpiya akademiyasi o'z ishini boshladi. Koreya 1977, Tayvan 1977, Yegipit 1978, Yaponiyada 1978-yili tashkil topdi. 1983-yili SHvetsariyaning Lozana shahrida xalqaro olimpiya qo'mitasi komissiyasi, xalqaro olimpiya akademiyasi bilan "olimpiya ta'limi" haqida uchrashuv tashkil etildi.

Unda Xalqaro olimpiya qo‘mitasi komissiyasi va xalqaro olimpiya akademiyasi, milliy olimpiya akademiyalarini tuzishni qo‘llab quvvatladi.



1-diagramma. Jahonda Milliy olimpiya akademiyalarining tashkil etilish dinamikasi²¹

1984-yil XOQning VII-prizidenti X.A.Samaranch imzosi bilan hamma mamlakat milliy olimpiya qo‘mitalariga milliy olimpiya akademiyalarini tuzish haqida tavsiyalar jo‘natdi.


1989-yilga kelib qit’a bo‘yicha 45 ta MOA faoliyat ko‘rsata boshladi. 1978-1988-yillar oralig‘ida MOA soni yetti barobarga oshdi. Bu eng faol davr hisoblandi. 2018 yilga kelib, dunyoda 149 ta MOA tashkil etilgan va faoliyat ko‘rsatmoqda (1-diagramma).

Shuni qayt etish kerakki, Afrika qit’asi mamlakatlari rivojlanayotgan mamlakatlar milliy olimpiya akademiyalari soni bo‘yicha Yevropa mamlakatlaridan so‘ng II o‘rinda turadi.

Osiyo mamlakatlari o‘rtasida ham olimpiya akademiyalarining faoliyati rivojlanib, ularning soni oshib bormoqda (2-diagramma).

O‘zbekiston Respublikasi olimpiya akademiyasi. Xalqaro olimpiya akademiyasining topshirig‘i bilan milliy olimpiya qo‘mitalari qoshida milliy olimpiya akademiyalarini tuzish, hamkorlik qilish va ular faoliyatini uyg‘unlashtirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

²¹ www.olympic.org



2-diagramma. Qit'alar bo'yicha Milliy olimpiya akademiyalarining joylashuvi²²

1993-yil 18-aprelda O'zbekiston Respublikasi olimpiya akademiyasi O'zbekiston milliy olimpiya qo'mitasi huzurida tashkil etildi. Uning prezidenti professor A.Q.Xamrokulov va uning ijroiya direktori dots. B.S.Radjabov tarkibidagi delegatsiya 1994-yilda Olimpiyada bo'lib o'tgan XOAning sessiyasida ishtirok etdi.

O'zR OAning ijroiya qo'mitasi tarkibiga yetakchi olimlar, professor o'qituvchilar, murabbiylar, tibbiyot xodimlari va fan, madaniyat, olimpiya harakati arboblari kiritilgan.

O'zbekiston milliy olimpiya akademiyasiga Abdulxamid Xamrakulov, Ropigjon Qudratov, Jasur Akramov, Olim Qurbanov va Shoakram Isroilovlar rahbarlik qilib keldilar.

O'zR OA ustavida, O'zR MOQ rahbarligi ostida harakat qiladigan ko'ngilli jamoat tashkiloti hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi OA maqsadlari olimpizm, olimpiya harakati va Olimpiya o'yinlarining insonparvar qadriyatlari tamoyillari va g'oyalarini o'rganish, tarqatish, ommalashtirish hamda rivojlantirishdan iborat.

O'zR OAning dolzarb vazifasi bo'lib mamlakatimiz aholisi olimpiya ta'limotining tashkiliy va ilmiy-uslubiy asoslarini yaratish, mintaqaviy Olimpiya akademiyalari bilan aloqalar o'rnatish hisoblanadi.

²² www.olympic.org

OA o'zinig faoliyatida XOQ va XOA, sport turlari bo'yicha milliy federatsiyalar, turli yo'nalishdagi oliy o'quv yurtlari bilan hamkorlik qiladi. OAning asosiy faoliyati olimpizm g'oyalarini amalga oshirishdir.

O'zbekiston olimpiya akademiyasi faoliyati doirasida keng aholi o'rtasida, oliy o'quv yurtlari, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalari umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilari va yoshlarni sog'lom turmush tarzi bilan munosabatda bo'lishi olimpiya ta'limi dasturini amalga oshirish, olimpiya mavzulari bo'yicha tadqiqot ishlarini olib borish, aholi o'rtasida olimpizm g'oyalari va tamoyillarini takomillashtirish, tarqatish ishlari amalga oshirilmoqda.

Olimpiya muzeylari. Xalqaro olimpiya qo'mitasi asosiy e'tborlardan birini olimpiya ta'limi, olimpizm g'oyalari va olimpiya harakatini tashviqot va targ'ibot qilishni yangi shakllariga ehtiyoj sezililayotganligini bir necha bor xalqaro kongresslarda muhokama qilib keldi. Olimpiya muzeylari mana shunday tashkiliy shakllardan biri bo'lib, ularning birinchisi 1993-yil 23-iyunda H.A.Samaranch tashabbusi bilan Lozannada (Shveytsariya) tashkil qilindi. 1995-yilda jamoatchilik tomonidan yuksak darajada tan olindi va Yevropada yilning eng yahshi muzeyi sovriniga ega bo'ldi.

Lozannadagi Olimpiya muzeyi olimpiya harakati tarixining ajoyib ibodatxonasi hisoblanadi. Shu bilan birga u xalqaro olimpiya harakati o'tmishi va hozirgi paytini birlashtiruvchi samarali axborot hamda targ'ibot markazidir. Muzeyda turli yoshdagi tashrif buyuruvchilar uchun ajoyib sharoitlar yaratilgan

San'at, ayniqsa, badiiy ko'rgazmalarni tashkil qilishga katta e'tibor berilgan. Unda ilmiy-texnika taraqqiyotining eng oxirgi yutuqlaridan oqilona foydalanilgan.

Hozirgi kunda olimpiya g'oyalarini targ'ibot qilishning yangi vositasi – sport tarihi va olimpiya muzeylari yaratildi.

Lozannadagi Olimpiya muzeyi olimpiya harakati tarixining asosiy markazi hisoblanadi. Shu bilan birga olimpiya muzeyi xalqaro olimpiya harakati o'tmishi va hozirgi davrini birlashtiruvchi samarali ahborot hamda targ'ibot markazidir.

Jahonning bir qator davlatlarida ham olimpiya muzeylari tashkil qilingan, jumladan:

1. Saloniki Olimpiya muzeyi (Gretsiya)
2. Lozanna Olimpiya muzeyi (Shveytsariya)
3. Barselona Olimpiya-sport muzeyi (Ispaniya)
4. Seul Olimpiya muzeyi (Koreya)
5. Lillehammer Olimpiya muzeyi (Norvegiya)
6. Leyk-Plesid Qishki Olimpiada muzeyi (AQSH)
7. Murmansk Olimpiadalar tarihi muzeyi (Rossiya)
8. Toshkent Olimpiya shon-shuhrati muzeyi (O‘zbekiston).

Bu muzey faoliyatida turli targ‘ibot shakl va vositalarining butun bir majmuasidan foydalaniladi: nashriy hujjatlar, foto materiallari, sport asbob anjomi buyumlari sport jamoasining atributlari (kubok, sovrin, medal, znachok va h.k.lar). Sport va olimpiya muzeylari – bu doimiy ravishda faoliyat ko‘rsatuvchi targ‘ibot muassasalaridir.

O‘zbekiston olimpiya shon-shuhrati muzeyi. Olimpiya shon-shuhrati muzeyi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 14-avgustdagi 284-sonli qarori bilan tashkil etilgan.

1996-yil 2-sentyabrda Toshkentda O‘zbekiston olimpiya shon-shuhrati muzeyi ochildi. Ushbu voqeaning qanchalik katta ahamiyatga ega ekanligi yana shundan ma’lumki, mazkur muzey ochilishida O‘zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimov va o’sha paytda Osiyoda yagona va noyob bo‘lgan olimpiya muzeyning ochilishi marosimida ishtirok etish uchun maxsus yetib kelgan X.A.Samaranch qatnashdi. Marosimda sport faxriylari, Olimpiya uyinlari sovrindorlari va ishtirokchilari, diplomatik korpus, xalqaro tashkilotlar vakillari, poytaxt jamoatchiligi hamda jurnalistlar ishtirok etdi.

Karnay va surnay navolari ostida milliy liboslardagi qizlar o‘zbek yerining ajoyib gullarini yuksak mehmonlarga taqdim etdilar. Yig‘ilganlar oldida I.A.Karimov so‘zga chiqdi. U yangi muzey nafaqat eksponatlarni

namoyish qilish joyi, balki O‘zbekistonda sport harakatini rivojlantirish markazi bo‘lishi, o‘rib kelayotgan avlodni tarbiyalashga katta hissa qushishi lozimligini ta’kidlab o‘tdi.

So‘ngra O‘zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimov X.A.Samaranchga olimpiya harakatini rivojlantirish, davlatlararo hamkorlik, xalqlar o‘rtasidagi tinchlik, do‘stlik va o‘zaro munosabatlarni mustahkamlash hamda O‘zbekiston sportini qo‘llab-quvvatlashdagi xizmatlari uchun O‘zbekiston hukumatining yuksak mukofoti — «Buyuk xizmatlari uchun» ordenini topshirdi.

XOQ prezidenti javob nutqida bu yuksak mukofotni xalqaro olimpiya qo‘mitasining yer yuzida tinchlikni mustahkamlash, sportni rivojlantirish ishiga qo‘shgan hissasini tan olish sifatida kabul qilayotganligini ta’kidlab o‘tdi. «Birinchi Prezident I.A.Karimov, — ta’kidladi u, sportning jamiyat hayotidagi o‘rniga katta e’tibor qaratadi. Shuning uchun ham sizning davlatingizda sport tez sur’atda rivojlanmoqda.

Men ishonamanki, muzey o‘zbekistonlik sportchilar turli jahon musobaqalarida qo‘lga kiritadigan medallar bilan to‘ldirib boriladi».

O‘zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimov va XOQ prezidenti X.A.Samaranch yangi muzeyga kirish oldida lentani kirkdilar. Ekspонатlarni ko‘zdan kechirish davomida X.A.Samaranch shunday fikr bildirdiki, ushbu muzey Lozannadagi Olimpiya shon-shuhrati muzeyidan qolishadigan joyi yo‘q. Haqiqatdan ham, bu yerda qimmatbaho eksponatlar ko‘p bo‘lib, ular nafaqat O‘zbekiston, balki xalqaro olimpiya harakati, milliy sport turlari tarixi hamda O‘zbekiston sporti an’analari to‘g‘risida hikoya qiladi. U muzeyga qimmatbaho eksponatlar sovg‘a qildi.

Muzeyning qimmatbaho eksponatlari — bu birinchi prezident I.A.Karimov sovg‘a qilgan xalqaro sportni rivojlantirishga qo‘shgan hissasi uchun takdirlangan mukofotlari: XOQning Oltin Olimpiya ordeni, Osiyo Olimpiya kengashining Oltin Olimpiya ordeni, Xalqaro havaskorlar kurash federatsiyasining «Oltin marjoni». Ular muzeyda markaziy o‘rinni egalladi.

O‘zbekiston Olimpiya shon-shuhrati muzeyi Olimpizm qadriyatlarini va “halol o‘yin” tamoyillarini targ‘ib qilishda, O‘zbekiston sportchilarining g‘alabalari va O‘zbekistonda Olimpizmning rivojlanish tarixi to‘g‘risida keng jamoatchilikka ma’lumot berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu maqsadda muzey O‘zbekiston sportchilarining Olimpiya o‘yinlarida va boshqa muhim xalqaro musobaqalarda qo‘lga kiritgan g‘alabalarini o‘zida aks ettiruvchi mavzuli ekspozitsiyalar va ko‘rgazmali tadbirlarni doimiy ravishda tashkil etadi. O‘zbekiston Olimpiya shon-shuhrati muzeyi asosiy fondidan 2000 dan ortiq eksponat o‘rin olgan, shulardan 1000 dan ortiq eksponat doimiy ekspozitsiyaga qo‘yilgan.

Muzeyda O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sport tarixiga oid hujjatlar fondini yaratish buyicha har-tomonlama ish olib boriladi. Bu yerda davlatimizning sporti va olimpiya harakati tarixi to‘g‘risida hikoya qiluvchi materiallar to‘planadi hamda ko‘rgazmaga qo‘yiladi. Mamlakatimiz olimlari o‘zbek sporti tarixiga oid materiallarni yig‘ish va tahliliy ko‘rib chiqish borasida yirik hajmda ishlarni bajardilar. O‘zbekistonning taniqli va buyuk sportchilari olimpiya maskaniga o‘zlarining sport mukofotlari, fotosuratlar, gazetalardan olingan hujjatlar, yorliqlar, diplomlar, sport nishonlari va boshqa jismoniy tarbiya harakati tarixiga oid materiallarni topshirdilar.

Materiallarning keng va turli ekspozitsiyasi, binoning o‘ziga xos betakror arxitekturasi, muzeyning o‘zbek uslubida bajarilgan ichki qismi xorijiy mehmonlarda katta taassurot qoldirmoqda. Bu hakida xalqaro sport tashkilotlari vakillari muzeyda O‘zbekiston davlat sport qo‘mitasi, MOQ rahbariyati, yetakchi sportchilar va mutaxassislar bilan bo‘lgan uchrashuvlarda o‘z nutqlarida ta’kidlab o‘tadilar.

Muzeyda 11 mingdan ziyod eksponatlar: turli buyumlar, ashyolar, rasmlar, yorlikdar va musobaqalarning g‘oliblariga berilgan kuboklar, medallar, nishonlar mavjud. Ular AQSH, Ispaniya, SHveysariya va boshqa xorijiy davlatlardan olib kelingan. Muzeyning 1-qavatida noyob eksponatlar joylashtirilgan. Birinchi

Prezident I. Karimovning muzeyga sovg'alari ham bor. Bular xalkaro sportni rivojlantirishga qo'shgan hissasi uchun O'zbekiston Prezidentiga XOQ Prezidenti topshirgan Olimpiada oltin ordeni, Osiyo Olimpiada Kengashining Olimpiada oltin ordenidir.

Shuningdek, bu yerda Xalqaro havaskorlar kurash federatsiyasining "Oltin marjoni", professional boks bo'yicha 16 karra jahon chempioni A. Grigoryannint chempionlik oltin kamari, gulchambari va medallari, olimpiada o'yinlari vaqtida tayyorlangan turli medallar va nishonlar bor.

Muzeyning 2-qavatida Olimpiada o'yinlari o'tkazilgan yillar xronologik tarzda berilgan bo'lib, ularda ishtirok etgan o'zbekistonlik sportchilarning kiyimlari, asbob-anjomlari, suratlari, mukofotlari bilan tanishish mumkin. O'zbekiston mustaqilligi yillarida sportchilari-mizning jahon, Yevropa birinchiliklari, Osiyo, Markaziy Osiyo o'yinlari, Toshkent va xorijiy mamlakatlarda o'tkazilayotgan turli xalqaro turnirlarda erishgan yutuqlari, qo'lga kiritgan sovrinlari muzey eksponatlarining asosini tashkil etadi.

Shunday qilib ushbu muzeyning vazifasi: olimpiya g'oyalarini targ'ib qilish bilan birga respublikada jismoniy tarbiya, sport, sayohat va xalq milliy o'yinlarini yuksaltirish, shuningdek, O'zbekiston sportchilarining jahon miqyosidagi nufuzini mustahkamlash ishiga ko'maklashish hisoblanadi.

Bob bo'yicha xulosa

Xulosa qilib aytganda, olimpizmni targ'ibot qilishda keng ko'lamli ishlarni olib borish, ushbu jarayonda eng samarali va tasirchan usul va texnologiyalarni qo'llash targ'ibotning samaradorligini oshiradi.

Bugungi kunda milliy olimpiya akademiya faoliyatini rivojlantirish, hududiy bo'limlarni tashkil etish, hududiy akademiyalarni hududiy federatsiyalar bilan hamkorlikda faoliyatlarini tashkil etish, oliy ta'lim muassasalari, o'rta maxsus ta'lim muassasalari, umumta'lim maktablari va bolalar va o'smirlar sport maktablari, barkomol avlod markazlari, maktabdan tashqari muassasalar bilan aloqalar

oʻrnatish olimpizm gʻoyalarini amalga oshirish va uni tashviqot va targʻibot qilish dolzarb masalalar hisoblanadi.

Olimpiya qoʻmitasi, zamonaviy olimpiya oʻyinlarini, milliy olimpiya qoʻmitalari hamkorlikda olimpiya sport turlarini rivojlantirish olimpiya taʼlimi dasturlarini ishlab chiqish masalarini muntapzam ravishda kongresslarida muxokamadan oʻtkazmoqdalar va oʻzlarining tavsiyalarini milliy olimpiya qoʻmitalariga tavsiyalar berib kelmoqdalar

III-BOB. OLIMPIZM TARG‘IBOTINI TASHKIL QILISH BO‘YICHA OLINGAN NATIJALAR VA ULARNING TAHLILI

3.3. Oliy ta’lim tizimida olimpizm ta’limini targ‘ib qilish yo‘llari

Olimpizm ta’limi o‘zining dolzarb va insoniylik xarakteri bilan dunyo jamoatchiligining e’tiborini tortmoqda. Mutaxassislar va olimlarning fikricha, Olimpizm ta’limini ta’lim tizimida samarali qo‘llash va uning pedagogik imkoniyatlaridan samarali foydalanish zarur.

Olimpizm ta’limini oliy ta’lim tizimida targ‘ib etish, talabalarni Olimpiya g‘oyalari ruhida tarbiyalash muhim ahamiyatga ega. Olimpizm ta’limi asosida o‘quv-mashg‘ulotlarini tashkil etish, dars va darsdan tashqari vaqtlarda talabalarni Olimpiya tamoyillari bilan tanishtirish o‘z navbatida jismoniy tarbiya va sport sohasi oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda biz talabalarni Olimpizm ta’limi asosida o‘qitish yo‘llarini tadqiq etishni tadqiqot vazifalaridan biri sifatida belgilab oldik. Bunda mavzuga tegishli adabiyotlar tahlil etildi, NamDU jismoniy madaniyat fakulteti o‘quv jarayonida Olimpizm ta’limi tushunchasining aks ettirilishi o‘rganildi. Talabalarning Olimpiya o‘yinlari, Olimpiya g‘oyalari va Olimpizm haqidagi bilimlari va qiziqishlari o‘rganildi.

60 nafar talabalar bilan mavzu doirasida suhbatlar tashkil etilganda, ularning Olimpizm va Olimpiya o‘yinlari to‘g‘risidagi qiziqishlari yuqori ekanligi aniqlandi. So‘rovda ishtirok etgan barcha ishtirokchi-talabalar Olimpiya o‘yinlariga birdek qiziqishlarini bildirib o‘tganlar. So‘raluvchilarning aksariyati (48 tasi) Olimpiya o‘yinlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni internet ma’lumotlaridan olishlari aniqlandi. Qolgan ishtirokchilar esa gazeta, jurnal va boshqa turdagi manbaalarni ko‘rsatib o‘tishdi.

Biz tomonimizdan so‘nggi uch yilda tayyorlangan bitiruv malakaviy ishlari va kurs ishlari tahlil qilindi. Tahlillar va o‘rganishlar shuni ko‘rsatdiki, bitiruv malakaviy ishlari va kurs ishlari mazmunida olimpiya ta’limoti g‘oyalarini targ‘ib

etish masalasi aks ettirilmagan. Olimpiya o'yinlariga bag'ishlangan ishlar va materiallar deyarli mavjud emas.

Alohida ta'kidlab o'tish kerakki, O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgan davrdan buyon ko'plab nufuzli sport musobaqalarida, Osiyo va Olimpiya o'yinlarida sportchilarimiz munosib ishtirok etdilar. Ammo milliy terma jamoasining Olimpiya o'yinlaridagi ishtiroki, egallagan natijalarni aks ettiruvchi ilmiy-uslubiy adabiyotlar sanoqli. Mavjud adabiyotlar ham faqatgina statistik ma'lumotlarni o'zida aks ettiradi. Olimpiya g'oyalari, tamoyillari va olimpiya ta'limotini chuqur o'rganilmagan. Bu o'z navbatida talaba-yoshlarning olimpiya ta'limoti haqidagi qarashlari past darajada bo'lishiga sabab bo'ladi.

Bizning fikrimizcha, talabalarning bitiruv malakaviy ishlari mavzularini rejalashtirishda Olimpizm ta'limini targ'ib etish masalalsiga ham atroflicha yo'naltirish lozim.

Mavzuni atroflicha o'rganish maqsadida fakultetda mavjud ilmiy to'garaklari faoliyati o'rganildi. Ilmiy to'garaklar ish rejalari va iqtidorli talabalar tomonidan tayyorlangan ma'ruzalar o'rganildi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, to'garaklar mazmunida olimpiya g'oyalarini o'rganish, uning pedagogik ahamiyatini yoritish va targ'ib qilish masalalari yetarlicha kiritilmagan. Iqtidorli talabalar tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlar va izlanishlar asosan sport turlari bo'yicha mashg'ulotlar tashkil etishga qaratilganligini alohida qayd etish joiz.

Bir qancha iqtidorli talabalar bilan olimpiya g'oyalari, olimpiya ta'limoti va olimpizm haqida suhbatlashib, ularning bilimlari tekshirib ko'rilganda o'rganilayotgan mavzu talabalarni qiziqtirishi ma'lum bo'ldi.

Mazkur mavzu bo'yicha biz tomonimizdan o'tkazilgan kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, olimpiya ta'limoti asosida talabalar o'quv jarayoni va darsdan tashqari tadbirlarni tashkil etish, adabiyotlarni tahlil qilish, so'rov o'tkazish va muammoning amaliyotdagi holatini o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Oliy ta'lim talabalarini olimpiya g'oyalari asosida tarbiyalash, ta'lim-tarbiya jarayonlarini olimpizm tamoyillari negizida olib borish tarbiyaning samaradorligini oshiradi. Shu sababdan bitiruv malakaviy ishlari va kurs ishlari mazmunini olimpiya ta'limoti mazmuni bilan boyitish lozim.

Talabalarning darsdan bo'sh vaqtlarida tashkil etiladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda olimpizm g'oyalari va ta'limotini muhokama etish zarur. Olimpiya o'yinlari tarixi, olimpizm g'oyalari va tamoyillarini targ'ib qilishni o'z ichiga olgan tadbirlar rejasini o'quv jarayoniga keng targ'ib qilish lozim.

Talabalar ilmiy to'garaklarini tashkil etish va rejalashtirishda, shuningdek, iqtidorli talabalar ilmiy mavzularini tanlashda olimpizm g'oyalari va tamoyillarini tadqiq etishni nazarda tutuvchi ilmiy mavzularni belgilash kerak.

Olimpizm g'oyalarini va tamoyillarining ijtimoiy-pedagogik ahamiyatini yoritib beruvchi, olimpizmning insonparvarlik va tenglik xarakterini aks ettiruvchi ilmiy-ommabop risolalar, o'quv qo'llanmalar, darsliklar yaratish kerak.

Ommaviy axborot vositalarida, asosan televidenie orqali olimpiya harakati va uning tarbiyaviy ahamiyatini yoritib beruvchi hujjatli filmlar va boshqa materiallar tayyorlash va namoyish qilish kerak.

Bizning fikrimizcha, oliy ta'lim muassasalari talabalarini o'qitish va tarbiyalashda olimpiya ta'limoti va g'oyalaridan keng foydalanish muhim ahamiyatga ega. Shu sababdan ham mutaxassislar va olimlar mazkur masalaga alohida ahamiyat qaratishlari lozim.

Bizning olib borgan tadqiqotlarimiz davomida yukorida qayd etilgan nazariy muloxazalardan kelib chiqib, oliy ta'limning jismoniy madaniyat magistratura, bakalavr (kunduzgi, sirtqi va maxsus sirtqi) yo'nalishlari talabalariga olimpiya ta'limi dasturini quyidagi modullarda amalga oshirdik:

Olimpiya ta'limi dasturi moduli

№	Modul	Mavzu	Mazmuni
1.	I-modul:	Sport tarixi va qadimiy olimpiya o'yinlari	Qadimgi va zamonaviy Olimpiya o'yinlarining tarixi va rivojlanishi, Olimpiya harakati; Olimpiya o'yinlarini qayta tiklashda Perъ de Kuberten va boshqa taniqli rasmiylarning hissasi; Olimpiya g'oyasining ma'naviy jihati; Olimpizmning asosiy tamoyillari; Olimpizm falsafasi; Olimpiadaning tashkiliy va iqtisodiy muammolari; Olimpiya o'yinlarining mintaqaviy va milliy muammolarini targ'ib qilish.
2.	II-modul:	Ta'lim va tarbiya tizimida Olimpizm	Olimpizmning jamiyatdagi tutgan o'rni; sport musobaqalari va tarbiyasi; Olimpizmni xalqaro tinchlik va do'stlikga qo'shgan hissasi; Olimpiya sportini axloqiy qiyofasi; Olimpizmning zo'ravonlikka munosabati; Olimpiya o'yinlarida ishtirok etish uchun sportchilarni tayyorlash; Olimpizm va Olimpiya o'yinlari muammolari.
3.	III-modul:	Sportning ilmiy va texnik muammolari	Sport mashg'ulotlari; sport bilan bog'liq ilmiy, tibbiy, biologik, psixologik, pedagogik masalalar; Olimpizm va san'at; Olimpizm bibliografiyasi; Olimpiada o'yinlarida jamoalar, murabbiylari, hakamlar, Olimpiya chempionlarini ishtirok etish tajribalari.

2. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida olimpiya ta'limini tashkil etish

Tadqiqotlarimizning ushbu qismida umumiy o'rta ta'lim maktablari sharoitida olimpiya ta'limini bosqichma-bosqich, fanlararo munosabat asosida amalga oshirish masalasi tadqiq etiladi.

Yuqoridagi fikrlarga tayangan holda qayd etish lozimki, o'quvchi yoshlar orasida olimpiya ta'limi va g'oyalarini targ'ib qilish, ularda olimpizm ruhini shakllantirish uzoq muddatli, tizimli va izchil yondashuvni talab etuvchi pedagogik faoliyat jarayonidir. Bu jarayon barkamol shaxs va malakali mutaxassisni

tarbiyalash borasidagi ijtimoiy maqsadni amalga oshirish borasidagi yaxlit jarayonning muhim tarkibiy qismi sanaladi.

O‘quvchi yoshlar orasida olimpiya ta’limini targ‘ibot qilish maqsadida tashkil etilgan amaliy faoliyat uchun ob’ekt (tajriba maydoni) sifatida umumiy o‘rta ta’lim maktablari ham tanlandi.

Ushbu muassasaning olimpiya ta’limini tashkil etish bo‘yicha imkoniyatlari o‘rganildi. Dastlab olimpiya ta’limini bosqichma-bosqich amalga oshirish maqsadida umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘qitilishi yo‘lga qo‘yilgan o‘quv fanlarining imkoniyatlarini o‘rganishga harakat qilindi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun 2018–2019 o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv reja o‘rganildi. Olimpiya ta’limini bosqichma-bosqich amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘lgan fanlar bo‘yicha darsliklar tahlil qilindi (1-jadval).

Tahlillar natijasida 1-jadvalda nomlari keltirilgan o‘quv fanlarining tadqiqot muammosini hal etishda yetarli imkoniyatga ega ekanligi aniqlandi. Ayniqsa “Tarix”, “Vatan tuyg‘usi”, “Musika madaniyati”, “Tasviriy san’at va chizmachilik”, “Jismoniy tarbiya” fanlarining imkoniyati yuqori darajadali ayon bo‘ldi.

1-jadval

T/r	Fan yo‘nalishlari va o‘quv fanlari	Ushbu fanlar o‘qitiladigan sinflar										
		1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11
I.	Ijtimoiy fanlar											
1.	Davlat va huquq asoslari								+	+	+	+
2.	Tarix					+	+	+	+	+	+	+
3.	Odobnoma	+	+	+	+							
	Vatan tuyg‘usi					+	+					
	Milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari							+	+	+	+	+
II.	Amaliy fanlar											
1.	Musika madaniyati	+	+	+	+	+	+	+				
2.	Tasviriy san’at va chizmachilik	+	+	+	+	+	+	+	+	+		
4.	Jismoniy tarbiya	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+

Tadqiqotlarimiz davomida ishlab chiqilgan Umumta'lim maktablari sharoitida olimpiya ta'limini bosqichma-bosqich tatbiq etilishining umumiy sxemasi yettita asosiy bosqichdan iborat bo'lib, ular 5-11 sinflarni qamrab oladi va o'quv dasturiga mos keladi.

2-jadval

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida olimpizm ta'limining na'munaviy o'quv dasturi

Fan	Modul	Olimpizm ta'limi mazmuni
Tarix	1. Jismoniy tarbiya va sportning tarixiy taraqqiyoti 2. Qadimgi olimpiya o'yinlari 3. Zamonaviy olimpiya o'yinlari	5-sinf Qadimgi dunyo xalqlarining kelib chiqishi va jismoniy madaniyati
		6-sinf Qadimgi yunonistonda jismoniy tarbiya, Qadimiy olimpiya o'yinlarining kelib chiqishi va rivojlanishi, uning kelib chiqishiga oid mifologik va tarixiy yondoshuv bilan tanishish,
		10-sinf (Jahon tarixi) zamonaviy olimpiya o'yinlarining qayta tiklanishi, 20-asrning birinchi yarmida xalqaro sport va olimpiya harakati, 20-asrning ikkinchi yarmida xalqaro sport va olimpiya harakati, 21-asrda xalqaro sport va olimpiya harakati
		11-sinf (O'zbekiston tarixi) Xalqaro Olimpiya maydonidagi O'zbekistonning tarixiy holati
Davlat va huquq asoslari	Olimpiya davlati	8-sinf Olimpiya xartiyasi, Olimpiya harakatining boshqaruv organlari, 9-sinf sport va siyosatning o'zaro ta'siri, olimpiya o'yinlari va sportda doping muammosi, 10-sinf Sport va giyohvand moddalar
Vatan tuyg'usi	1. Sport-kelajagimiz, faxrimiz 2. Olimpiya qaxramonlari kelajagimiz timsoli	5-sinf Komil inson orzusi, O'zbekiston nomini dunyoga tanitgan olimpioniklar
		6-sinf Mard bo'lsang maydonga tush, G'olibsan-milliy qaxramonsan, Olimpiya shon-shuhrat muzeyiga sayohat

Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari	Olimpizm- sportning ma'naviy asosi	7-sinf Olimpiyaning ming yillik an'analari, Olimpiya madaniyati va qadriyatlari
		8-sinf Olimpizm qit'alar birligi va do'stligi ramzi
		9-sinf Adolatli o'yin (fair play) tamoyili, Olimpizimni xalqaro tinchlik va do'stlikga qo'shgan hissi
Musiqqa madaniyati	Sport, san'at va madaniyat uyg'unligi	5-sinf Olimpiya madxiyasini kuylashni o'rganish (ingliz va o'zbek tillarida)
		6-sinf Sport musobaqalariga va o'zbek sportchilariga bag'ishlangan qo'shiqlarni kuylash, Olimpiya qasamyodini yod olish
Tasviriy san'at va chizmachilik	1. Sport mening hayotim	5-sinf Sport buyumlaridan tashkil topgan natyumort chizish (olimpiya sport turlarini farqlash)
	2. Olimpizm mening suratlarimda	6-sinf Harakatdagi sportchilar shaklini yasash (loy va plastilindan), grafik ishlarda olimpiya o'yinlari ramzlari (bayroq, xalqalar, mash'ala) ni chizish, timsollar (logotiplar) yaratish (O'zbekistonda olimpiya o'yinlari o'tkazilganda, umid nihollari), qadimgi atletlarning rasmlarini chizish.
	3. Men sevgan olimpiya qaxramoni	7-sinf Olimpiya chempionlari suratlarini chizish (O'zbek chempionlari), sport inshootlarini chizish (zamonaviy shakllarda, bunyodkor, humo)
Jismoniy tarbiya	Sitius, altius, fortius- Tezroq, balandroq, kuchliroq	Jismoniy tarbiya va sportning inson tanasiga ta'siri, Qadimgi va zamonaviy olimpiya sport turlari bilan tanishish, qishki va yozgi sport turlari, olimpiya shiorlari

Dastlabki tadqiqotlar maktab o'quvchilarining olimpiya ta'limi jarayonida fanlararo aloqalardan foydalanish mumkinligini tasdiqladi. Bu xulosa o'qituvchilar orasida so'rovnoma va suhbatlar o'tkazish natijalari bilan tasdiqlangan. So'rov va suhbatlar o'qituvchilar tomonidan olimpiya ta'limining umumiy tendentsiyalarini tahlil qilish va ayniqsa, zamonaviy maktab muhitida uni amalga oshirishda fanlararo aloqalar o'rnatish imkoniyati asosida amalga oshirildi.

Tadqiqotlarimiz davomida 7 bosqichdan iborat bo'lgan o'quv dasturi shakllantirilib, u 5-sinf dan 11-sinf gacha bo'lgan davrda amalga oshirildi. O'quv dasturining barcha bosqichlari umumta'lim maktabida ushbu loyihani amalga oshirish imkonini beradigan maktab o'quv dasturiga mos keladi.

Ushbu o'quv dasturida keltirilgan mavzular tadqiqotlarimiz davomida tayyorlangan o'quv va uslubiy qo'llanmalar ("Olimpiya ta'limi va jismoniy tarbiya jarayonida pedagogik mahorat" o'quv qo'llanma, "O'quvchi yoshlar uchun jismoniy madaniyat va olimpiya ta'limidan mashg'ulot shakllari", "O'zbekistonda olimpiya harakati" uslubiy qo'llanmalar), ilmiy va ommabop maqolalar ("Qadimgi olimpiada sport inshootlari", "Uchastie jennuin v mejdunarodnom olimpiyskom dvijeniya", "Istoriya razvitiya olimpiyskogo dvijeniya v Respublike Uzbekistan", "Olimpizmni anglash", "Olimpiya ta'limining targ'ibot shakli va vositalari", "P.Kubertenning zamonaviy olimpiya kontseptsiyasida shaxs rivojlanishi", "Olimpiya ta'limi-sport, san'at va madaniyat uyg'unligi", "Olimpizm – g'oya va amaliyotini nazariy o'rganish", "Olimpiya ta'limida nazariy bilimlarni joriy etish", "Barkamol yoshlar-yurt kelajagi", "Olimpizm archa atrofida") hamda boshqa ushbu sohada ilmiy izlanishlar olib borgan tadqiqotchilarning ilmiy nashrlari (A.Akramov, "O'zbekistonda jismoniy madaniyat va sport tarixi" o'quv qo'llanma, J.Eshnazarov, "Jismoniy madaniyat tarixi va boshqarish" darslik, I.Niyozov, "Olimpiya sport o'yinlari" uslubiy qo'llanma, E.Ernazarov, "Olimpiada — jahon sporti bayrami", S.Ruziyev, "Olimpiya bilimlari asoslari" o'quv qo'llanma, "Olimp sari")da batafsil yoritilgan.

3. Bolalar-o'smirlar sport maktablarida olimpiya ta'limini tashkil etish va uning samradorligini aniqlash

Tadqiqotning ushbu qismida bolalar va o'smirlar sport maktablarida olib borilgan tadqiqot ishlari hamda so'rovnoma natijalari tahlili bayon etiladi.

Muammoning amaliyotdagi mavjud holatini o'rganish va uni tashkil etishda qo'llanilayotgan vosita, usul va shakllar to'g'risida ilmiy asoslash maqsadida

Namangan shahar 2-Bolalar-o'smirlar sport maktabining tarkibi, sport turlari bo'yicha tasdiqlangan o'quv dasturlari, o'quv-mashq va tarbiyaviy ishlari jarayoni tahlil qilindi hamda trener-o'qituvchilari bilan 2019 yil fevral oyida anketa-so'rovi o'tkazildi.

So'rovnomada sport maktabining 50 nafar trener-o'qituvchilari ishtirok etdi.

Respondentlarga taklif qilingan anketa shartli ravishda qismlarga bo'lilingan: respondentlar to'g'risida ma'lumot va mazmunli qism.

Anketa so'rovining birinchi qismi trener-o'qituvchilarning olimpiya o'yinlari haqidagi ma'lumotlar, olimpizm haqida umumiy bilimlarini aniqlashga qaratilgan. Ikkinchi qismida olimpiya ta'limini tashkil etish bo'yicha yaratilgan pedagogik shart-sharoitlar va olimpiya ta'limini tashkil etish shakllari va vositalarini aniqlash edi.

Bizning nazarimizda, "olimpizm" tushunchasi o'rganilayotgan ob'ekt nuqtai nazaridan ham individual, ham ijtimoiy xususiyatni namoyon eta oladi.

Yuqoridagi fikrlarga tayangan holda qayd etish lozimki, o'quvchi yoshlar orasida olimpizm ta'limi va g'oyalarini targ'ib qilish, ularda olimpizm ruhini shakllantirish uzoq muddatli, tizimli va izchil yondashuvni talab etuvchi pedagogik faoliyat jarayonidir. Bu jarayon barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalash borasidagi maqsadni amalga oshirishdagi yaxlit jarayonning muhim tarkibiy qismi sanaladi.

Pedagogik yo'nalishlarda tashkil etiladigan tadqiqotlarning asosida o'rganilayotgan muammoning amaliyotdagi mavjud holatini o'rganish, aniqlangan dalillarni tahlil etish, muayyan xulosalarga kelish, shuningdek, xulosalar asosida muammoning umumiy holatiga baho berishga yo'naltirilgan amaliy faoliyat alohida o'rin tutadi.

Sport maktabining tarkibi, sport turlari bo'yicha o'quv dasturlari, o'quv-mashq, tarbiyaviy ishlari hamda ushbu jarayonlarni tashkil etish bo'yicha turli hil rejalari tahlil qilindi.

1. Bolalar va o'smirlar sport maktabida o'quvchi-sportchilarni ko'p yillik sportga tayyorlashni tashkil etish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi: Sport-sog'lomlashtirish bosqichi, Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichi, O'quv-mashq bosqichi hamda Sportda kamolotga erishish bosqichi. Ushbu bosqichlarning har birida nazariy ta'lim berish uchun mashg'ulotlarning ushbu qismiga 3-7 daqiqa vaqt ajratilgan bo'lib, ushbu vaqt davomida tanlangan sport turi bo'yicha nazariy bilimlar berish bilan chegaralanadi.

2. Sport maktabining tarbiyaviy ishlari rejasida ham ta'lim-tarbiya, odo-axloq, ma'naviyat va ma'rifat, yosh avlodni barkamol voyaga yetkazish kabi masalalarni hal etishda ham turli an'anaviy shakllardan foydalaniladi.

3. Sport maktabining ommaviy sport musobaqalarni o'tkazish yillik taqvim rejasini tahlil qilinganda BO'SM miqiyosida O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 28 yilligiga, Konstitutsiyasining 27 yilligiga, 1 oktyabr - "O'qituvchilar va murabbiylar kuniga, 14 yanvar - "Vatan himoyachilari kuni"ga, O'zbekiston Respublikasi 1-Prezidenti I.Karimovning tavallud kuniga, 8 mart - "Xalqaro xotin-qizlar kuni"ga, "Navro'z" umumxalq bayramiga, "Xotira va qadrlash kuni"ga bag'ishlab, shu bilan bir qatorda "Sog'lom hayotga qadam tashla", "Sog'lom muhitni alkogol va tamakidan holi tanlaymiz", "Yoz-2019" shiorlari ostida hamda Viloyat, Respublika va Xalqaro miqyosda musobaqalar o'tkazilishi rejalashtirilganligi ma'lum bo'ldi.

Tajriba-sinov ishlarini olib borish jarayonida trener-o'qituvchilarda olimpiya o'yinlari, olimpizm tushunchasi va olimpizmning samarali va qulay targ'ibot vositalari haqidagi bilimlarini mavjud darajasini o'rganish maqsadida respondentlarning e'tiboriga anketa so'rovlari va test savollarini havola etdik. Anketa so'rovining mazmunidan quyidagi savollar o'rin oldi:

1. Zamonaviy olimpiada o'yinlari qachondan boshlab o'tkazila boshlagan?
2. Zamonaviy olimpiada o'yinlari asoschisi kim?
3. O'zbekistonda Milliy olimpiya qo'mitasi qachon tashkil etilgan?
4. O'zbekistonlik olimpiada chempionlaridan to'rt nafarini yozib ko'rsating!

5. Oxirgi o'tkazilgan yozgi va qishki olimpiada o'yinlari o'tkazilgan yillarni ko'rsating!
6. Olimpizmga berilgan ta'rifni ko'rsating!
7. Olimpiadaga oid yangi bilim va axborotlarni qaysi manba'lardan olasiz?
8. Olimpiya ta'limiga oid adabiyotlarni bilasizmi?
9. Quyidagi olimpiya ta'limini targ'ibot qilishning qanday shakllarida ishtirok etgansiz?

Respondentlarga havola etilgan anketa so'roviga berilgan javoblar tahlil etilganda ko'pchilik dastlabki 5 ta savolga to'g'ri javob qayd etdilar.

Anketa savolnomasi tarkibidan o'rin olgan oltinchi savolga javobda, respondentlarning barchasi "Olimpiya ta'limiga oid tushuncha" – deb, ko'rsatilgan qatorni belgiladilar. Vaholanki ushbu tushunchani to'liq aks ettirish uchun barcha javoblarni belgilashlari kerak edi.

Navbatdagi yettinchi savolga respondentlarning 70 foizi internetdan, 15 foizi sport gazetalaridan, 5 foizi televideniedan, 5 foizi adabiyotlardan deb ko'rsatma berishgan va qolgan 5 foizi boshqa manbalarni ko'rsatib o'tishgan.

Anketadan o'rin olgan sakkizinchi savolga nisbatan munosabat bildirishda respondentlar (adabiyotlarni ko'rsatishda) qiyinchiliklarga duch kelgani kuzatildi. Aksariyat respondentlar "Olimpiya bilim asoslari" va "Olimp sari" nomli adabiyotlarni qayd etishgan, lekin, mualliflari ko'rsatilmagan.

To'qqizinchi savol yuzasidan respondentlar ko'rsatilgan variantlarning quyidagilarini belgilaganlar: "Olimpizm va sport mavzusiga oid tayyorlangan ko'rsatuvlarni tomosha qilishda", "Ma'ruzalarda", "Sportga, olimpiada o'yinlariga bag'ishlangan qiziqarli kitoblarni muxokama qilishda". Bundan tashqari olimpiya o'yinlari jarayonini televidenie orqali kuzatib borishlarini bo'sh joyga qayd etganlar.

Tajriba-sinov ishlarini olib borish jarayonida Namangan shahridagi 2-Bolalar-o'smirlar sport maktabida olimpizm ta'limini tashkil etish va o'quvchi-sportchilar

ongiga olimpizm tamoyillarini singdirish maqsadida mumkin qadar samarali, ta'sirchan tadbirlarni uyushtirishga alohida e'tiborni qaratdik.

Bu boradagi pedagogik faoliyatning quyidagi shakllar yordamida amalga oshirilishi tadbirlarning samarali bo'lishini tasdiqladi:

3.3.1-jadval. O'quvchi-sportchilarda olimpizm tamoyillarini shakllantirishga oid tadbirlarning shakllari

№	Tarbiyaviy tadbir shakllari	Mavzusi
1.	Suhbat	1. Olimpizmning mazmun mohiyati va uni o'rganish 2. Shaxsda adolatli o'yin (fair play) tamoyilini qanday shakllantirish mumkin?
2.	Bahs-munozara (Adolatli o'yin)	1. Olimpiya sportchisining qiyofasi qanday bo'lishi zarur? 2. "Adolatli o'yin" tushunchasi to'rtta asosiy mavzuda: sport musobaqalariga hurmat (shu jumladan, mansabdor shaxslarga); boshqalarga hurmat (jamoa, murabbiylar, raqiblarga); O'zingizga hurmat; va raqobatdoshlikning muvozanatlashganligi. Bu mavzularning aloqaviy havolasi doimiy o'zini o'zi boshqarishning subtopikidir.
3.	Davra suhbat	Olimpizm qadrlangan qadriyat
4.	Ekskursiya	NamDU Jismoniy madaniyat fakultetiga
5.	Ko'rik-tanlov	Mening idealim bo'lgan olimpionik (insholar tanlovi)
6.	Ko'rgazmalar	Olimpiya ramzlarini tayyorlash, adolatli o'yin tamoyili aks ettirilgan filmlar va slaydlar namoyish etish

Yuqorida mavzulari ko'rsatib o'tilgan tadbirlarning har biri o'zida o'quvchi-sportchilarda olimpizm ta'limi to'g'risidagi bilimlarini shakllantirish borasidagi umumiy va xususiy maqsadni aks ettira oldi. Tajriba-sinov ishlari jarayonida tadbirlarni muayyan loyiha asosida tashkil etishga alohida e'tibor qaratdik.

BO'SMning boks sport turi bo'yicha UMG-1 guruhi va futbol sport turi bo'yicha UMG-1 guruhlarini tadqiqotimizning shartli ravishda tajriba guruhi, BO'SMning erkin kurash sport turi bo'yicha UMG-1 guruhi va voleybol sport turi bo'yicha UMG-1 guruhlarini esa, shartli ravishda nazorat guruhi qilib belgilandi. Nazorat guruxi o'z rejasi asosida ish olib bordi. Tadqiqot guruhi bilan biz yuqoridagi ishlar majmuasini amalga oshirdik.

Tadqiqot ishi uchun ishlab chiqilgan quyidagi savolnoma bo'yicha tajriba va nazorat guruhlarida tadqiqot avvalida va so'ngida so'rovnomaga o'tkazildi.

O'zingiz haqingizdagi ma'lumotlarni to'ldiring

1. Yoshingiz:

- a) 11 yoshdan kichik
- b) 11 yoshdan katta

2. Necha yildan buyon sport bilan shug'ullanasiz?

- a) 3 yildan ko'p
- b) 2 yil
- v) 1 yil

3. Sportga oid teledasturlarni ko'rib turasizmi?

- a) har doim
- b) bazan
- v) ko'rmayman

To'g'ri javobni belgilang!

4. Qadimgi olimpiya o'yinlari qayerda o'tkazilgan?

- a) Gretsiyada
- b) Rimda
- v) Yegipitda
- g) Misrda

5. Olimpiya o'yinlari vaqtida to'xtatiladi?

- a) qurilish ishlari
- b) urush

- v) dehqonchiliklar
- g) dengizda sayohat qilish

6. Qadimgi olimpiya o'yinlari qatnashchilari:

- a) faqat erkaklar bo'lgan
- b) faqat ayollar bo'lgan
- v) faqat kattalar
- g) faqat yoshlar

7. 2016 yil Braziliyada:

- a) qishki olimpiya o'yinlari o'tkazilgan
- b) futbol bo'yicha jahon chempionati bo'lgan
- v) yozgi olimpiya o'yinlari o'tkazilgan
- g) yoshlar olimpiya o'yinlari o'tkazilgan

8. Qishki olimpiya o'yinlari chempioni Lina Cheryazova qaysi sport turi bilan shug'ullangan.

- a) figurali uchish
- b) trampolin
- v) muz ustida xokkey
- g) fristayl

9. Olimpiya xalqasi qanday ma'noni anglatadi?

- a) beshta jismoniy sifatni
- b) o'yinlarning tarixiyligini
- v) beshta qita' birligini
- g) hech qanday ma'noni anglatmaydi

10. Olimpiya o'yinlari shiori: "Tezroq, Balandroq, ..."

- a) aqlliyoq
- b) chidamliyoq
- v) kuchliyoq
- g) aniqyoq

11. Qishki olimpiya o'yinlariga qaysi sport turi kiritilmagan?

- a) tog‘ chang‘isi
- b) chim ustida xokkey
- v) biatlon
- g) chana sporti

12. O‘yin davomida o‘yinchilaridan birining kiyimi yirtilib ketdi. Sizda zahira sport kiyimi bor.

- a) jamoamiz a‘zosi bo‘lsa beraman.
- b) raqib jamoasida bo‘lsa ham sport kiyimimni beraman.
- v) xar qanday holatda ham sport kiyimimni bermayman.
- g) nima qilishni bilmayman.

13. Siz hakamning xatosi tufayli musobaqa g‘olibiga aylandingiz va 1-o‘rin uchun mukofotlanasiz. Xato haqida faqat siz bilasiz. Bu holatda siz nima qilasiz?

- a) xato haqida murabbiyga yoki hakamga gapirib beraman.
- b) xatolik yuz bergani haqida hech kimga aytmayman.
- v) mukofot olganimdan qo‘ng faqat ota-onamga aytaman.
- g) nima qilishni bilmayman.

3.3.2-jadval. So‘rov natijalarini qayta ishlash uchun kalit

Javob	Ball ko‘rsatkichlari												
	N̄1	N̄2	N̄3	N̄4	N̄5	N̄6	N̄7	N̄8	N̄9	N̄10	N̄11	N̄12	N̄13
a	0	2	2	1	0	1	0	0	0	0	0	1	2
b	0	1	1	0	1	0	0	0	0	0	1	2	0
v	-	0	0	0	0	0	1	0	1	1	0	0	1
g	-	-	-	0	0	0	0	1	0	0	0	1	1

3.3.3-jadval. Olimpizm ta’limining darajasini baholash ko‘lami


Olimpizm ta’limi darajasi	Ball ko‘rsatkichlari
Yuqori	12- 16
O‘rta	8- 11
Past	0-7

Tajriba boshida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari quyidagicha bo'ldi:

3.3.4-jadval. Respondent o'quvchi-sportchilarda olimpizm ta'limini shakllanganlik darajasini o'rtacha koeffitsenti

T.r	Guruhlar	Tajriba avvalida			Koeffitsent
		Yuqori	O'rta	Past	
1.	Tajriba $n_1=32$	4	5	23	
2.	Nazorat $n_2=32$	3	7	22	

Bu ko'rsatkichlar diagrammada ifodalanganda quyidagi ko'rinishda namoyon bo'ldi:




Tajriba so'ngida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari quyidagicha bo'ldi:

3.3.5-jadval. Respondent o'quvchi-sportchilarda olimpizm ta'limini shakllanganlik darajasini o'rtacha koeffitsenti

T.r	Guruhlar	Tajriba so'ngida			Koeffitsent
		Yuqori	O'rta	Past	
1.	Tajriba $n_1=32$	15	13	4	
2.	Nazorat $n_2=32$	6	8	18	

Bu ko'rsatkichlar diagrammada ifodalanganda quyidagi ko'rinishda namoyon bo'ldi:



Bob bo'yicha xulosa

Ushbu o'rganishlar va respondentlarni so'rovnoma bergan javoblari natijalarini tahlil qilish jarayonida quyidagi xulosalarga kelindi.

Oliy ta'lim talabalarini olimpiya g'oyalari asosida tarbiyalash, ta'lim-tarbiya jarayonlarini olimpizm tamoyillari negizida olib borish tarbiyaning samaradorligini oshiradi. Bizning fikrimizcha, oliy ta'lim muassasalari talabalarini o'qitish va tarbiyalashda olimpiya ta'limoti va g'oyalardan keng foydalanish muhim ahamiyatga ega. Shu sababdan ham mutaxassislar va olimlar mazkur masalaga alohida ahamiyat qaratishlari lozim.

Sport maktabining tarkibi, sport turlari bo'yicha o'quv dasturlari, o'quv-mashq, tarbiyaviy ishlari hamda ushbu jarayonlarni tashkil etish bo'yicha tuzilgan boshqa turli hil rejalarni tahlil qilish natijasiga asoslangan xolda shu narsa ayon bo'ldiki muassasada o'quvchi-sportchilarga olimpiya ta'limini berishga yetarli darajada e'tibor qaratilmagan. Sport maktabining trener o'qituvchilari olimpiya o'yinlari haqidagi bilimlari yetarli darajada, lekin olimpiya ta'limi, uning mazmun-mohiyati haqida yetarlicha tushunchaga ega emaslar.

XULOSA

Mazkur ilmiy tadqiqot ishi Olimpizm ta'limi, nazariyasi, mazmun-mohiyatini tushunish va uni o'quvchi-yoshlarga yetkazishda vosita va usullarni o'rganishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Umuman olganda, Olimpiada o'yinlarining vujudga kelishi va tashkil etilishi tom ma'nodagi tarixiy hodisa bo'lib, ijtimoiy ahamiyati yuqori hisoblanadi. Shu sababdan uning turli qirralarini o'rganish tobora ortib bormoqda.

Olimpiada O'yinlarining eng muhim xususiyatlaridan biri shuki bunda ishtirokchilar (sportchi, murabbiy, hakam, muxlislar va boshqalar) tili, dini, millati, ijtimoiy kelib chiqishi va boshqa mansublik darajasidan qat'iy nazar yakdil bo'lib bahslashadilar. Bahslar jarayonidagi raqobat musobaqalardan so'ng unutiladi. Kuberten aynan shuni, ya'ni yakdillik va birdamlikni nazarda tutgan edi. Buni qarangki, u orzu qilgan maqsad va intilishlar tabiiy ravishda, Olimpizm orqali amalga oshirilmoqda.

Aksariyat hollarda sportga qiziquvchilar Olimpiada O'yinlari, Olimpizm va shu kabi masalalar yuzasidan turli fikrlar bildiradilar. Ular O'yinlarning kelib chiqish tarixi, rivojlanishi va tashkil etilishi kabi masalalar yuzasidan xilma-hil mulohazalar bildiradilar. Biz shaxsiy tajribamizdan bilamizki, Olimpiada O'yinlarining tarixiy rivojlanishini bilishga qiziquvchilar soni yetarlicha ko'p.

Olimpizmni o'rganish va uning g'oyalari ruhida yashash insonga katta kuch bahsh etadi. Chunki, Olimpizm g'oyalari poklik, halollik, yakdillik va birdamlik asosiga qurilgan. Olimpizm g'oyalari insoniyatni yaxshilik sari intilishga chorlaydi. Ona Vatanni sevish, do'stlarni hurmat qilish, tichlik va do'stlikni targ'ib qilish hamda tenglik Olimpizm g'oyalarida yetakchilik qiladi.

Yoshlarni Olimpizm g'oyalari ruhida tarbiyalash, ularni sportga qiziqtirish va sport bilan shug'ullantirish foydadan holi emas.

Amaliy tavsiyalar

1. Oliy ta'limda olimpizm ta'limini tashkil etishda quyidagi tadbirlarni amalga oshirish samarali xisoblanadi:

- talabalarning bitiruv malakaviy va kurs ishlari mavzularini rejalashtirishda olimpizm ta'limini targ'ib etish masalaliga ham atroflicha yo'naltirish;
- olimpiya o'yinlari tarixi, olimpizm g'oyalari va tamoyillarini targ'ib qilishni o'z ichiga olgan tadbirlar rejasini o'quv jarayoniga keng targ'ib qilish;
- talabalarning darsdan bo'sh vaqtlarida tashkil etiladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda Olimpizm g'oyalari va ta'limotini muhokama etish;
- talabalar ilmiy to'garaklarini (fair play) tashkil etish va rejalashtirishda, shuningdek, iqtidorli talabalar ilmiy mavzularini tanlashda olimpizm g'oyalari va tamoyillarini tadqiq etishni nazarda tutuvchi ilmiy mavzularni belgilash;
- olimpizm g'oyalari va tamoyillarining ijtimoiy-pedagogik ahamiyatini yoritib beruvchi, olimpizmning insonparvarlik va tenglik xarakterini aks ettiruvchi ilmiy-ommabop risolalar, o'quv qo'llanmalar, darsliklar yaratish;
- ommaviy axborot vositalarida, asosan televidenie orqali olimpiya harakati va uning tarbiyaviy ahamiyatini yoritib beruvchi hujjatli filmlar va boshqa materiallar tayyorlash va namoyish qilish lozim.

2. Sport maktablarida olimpiya ta'limini tashkil etish bo'yicha tavsiyalar:

- Sport turlari bo'yicha mashg'ulotlarning nazariy qismi mazmunidan olimpiya ta'limini targ'ib qiluvchi materiallar o'rin olishiga e'tibor qaratish;
- Sport maktablarining ma'naviy-ma'rifiy ishlar rejasidan olimpizmni targ'ib qiluvchi tadbirlar majmuasining o'rin olishiga erishish ("Olimpizm – sportchining ma'naviy qiyofasi", "Sportda adolatli o'yin "Fair play");
- Sport maktabi hududini olimpizmni targ'ib qiluvchi plakatlar, devoriy gazetalar, rasmlar bilan boyitish;
- Sport musobaqalari rejasiga 23 iyun "Xalqaro olimpiya kuni" ga bag'ishlangan sport haftaligini kiritish (barcha olimpiya sport turlari bo'yicha musobaqalar tashkil etiladi);

- Sport maktabi kutubxonasini olimpiya ta'limiga oid adabiyotlar bilan boyitish;

- Oliy ta'lim muassasalari jismoniy madaniyat fakultetlari bilan hamkorlikka erishish asosida trener o'qituvchilarning olimpiya ta'limi bo'yicha bilimlarini oshirish, ushbu ta'limni tashkil etish bo'yicha malakalarini shakllantirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

Normativ-huquqiy hujjatlar:

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т.: «Ўзбекистон», 2009 й.
2. Ўзбекистон Республикасининг «Таълим тўғрисида»ги Қонуни. (1997. 29 август). Туркистон. –Тошкент, 1997. 30 август.
3. Ўзбекистон Республикасининг «Кадрлар тайёрлаш миллий дастури». Маърифат. –Тошкент, 1998. 1 апрел.
4. Ўзбекистон Республикасининг «Жисмоний тарбия ва спорт тўғрисида»ги Қонуни (Янги тахрири). Халқ сўзи. 2015. 5 сентябр.
5. Ўзбекистон Республикаси президентининг 2017 йил 9 мартдаги “Ўзбекистон спортчиларини 2020 йилда Токио шаҳрида (Япония) ўтказиладиган XXXII Олимпия ўйинлари ва XVI Параолимпия ўйинларига тайёрлаш ҳақида”ги ПФ-2821-сон Фармони.
6. Ўзбекистон Республикаси президентининг 2017 йил 3 июндаги “Жисмоний тарбия ва оммавий спортни янада риқожлантириш чоратadbирлари тўғрисида” ПҚ-3031 сонли қарори.
7. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, катъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик - ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. Мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг асосий яқунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маъруза, 2017 йил 14 январь. - Тошкент: «Ўзбекистон», 2017. - 104 б.
8. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. / Ш. М. Мирзиёев. –Тошкент: Ўзбекистон, 2017. -592 б.
9. Каримов И.А. « Юксак маънавият енгилмас куч ». – Т.: 2009 й.

Darslik va o‘quv qo‘llanmalar:

10. Binder, Deanna L. (2010): Teaching Olympism in schools: Olympic Education as a focus on values education: university lectures on the Olympics [on line article]. Bellaterra : Centre d’Estudis Olímpics (UAB). International Chair in Olympism (IOC-UAB).

11. Boyboboyev B. va boshq. O‘quvchi yoshlar uchun jismoniy madaniyat va olimpiya ta’limidan mashg‘ulot shakllari. Uslubiy qo‘llanma. Namangan. 2017 yil. -26 b.

12. Boyboboyev B., Mamajonov D. O‘zbekistonda olimpiya harakati. Uslubiy qo‘llanma. Namangan. 2018 yil. – 55 b.

13. Deanna L. Binder. Teaching values an olympic education toolkit. International Olympic Committee. 2007.

14. Djalilova L. Jismoniy tarbiya va sport tarixi. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. - T. 2013.

15. Eshnazarov J. Jismoniy madaniyat tarixi va boshqarish. - T., «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2008., 388 bet.

16. Hamroqulov A.Q., Yunusov T.T. Olimpiya bilimlari asoslari. O‘quv qo‘llanma, - T., «Sharq» nashr., 2002, 93-bet.

17. Mualliflar jamoasi. “Olimp sari”. – Toshkent: “Navro‘z”, 2017. – 208 bet.

18. Olympic charter. International Olympic Committee – September 2017

19. Olympism in Action – Sport Serving Humankind. International Olympic Committee, June 2013

20. Sport, culture et éducation. Édité par le Comité International Olympique – Mars 2008.

21. Абдуллаев А. Жисмоний тарбия назарияси ва методикаси .Ф.2017.й.

22. Ахмедов Ф.Ш., Облоназаров Ф.А., Мамазиятов Д.Б., Олимпия билимлари. Ўқув-услубий қўлланма. – Самарқанд: СамДУ. 2017 йил. - 60 бет.

23. Бойбобоев Б.Ғ. Олимпия таълими ва жисмоний тарбия жараёнида педагогик маҳорат. Ўқув қўлланма. Тошкент. “Muxr-press” нашриёти. 2018 йил. - 187 бет.
24. Кубертен П. Ода спорту. – М.: ФиС, 1987. – 57 с.
25. Ниёзов И. Олимпия спорт ўйинлари. (Услубий қўлланма). – Т., “Фан” нашриёти., 2006., 127-бет.
26. Олимпийская Хартия. Международным олимпийским комитетом – сентябрь 2017г.
27. Олимпийские игры: (для студентов и учащихся филологического направления) / А.Н.Нормурадов, И.И.Моргунова; МВ и ССО РУз. - Т.: Noshir, 2011. - 240 с.
28. Паршиков Т.А. Олимпизм и олимпийское образование. 2011.
29. Платонов В.П. Общая теория подготовки спортсменов в олимпийском спорте. Киев, 1997. 224 с.
30. Родиченко В. С.и другие, Твой олимпийский учебник, Спорт. - М.: 2017.
31. Столяров В.И. Пьер де Кубертен. Идеи и их воплощение // Спорт в школе. – 2013. - № 7 – 8. – С. 7 – 11.
32. Столяров, В.И. Олимпийское образование и спартианская система воспитания // Спорт, духовные ценности, культура. - М., 1997. - Вып. 6. - С. 71-233.
33. Столяров, В.И. Система Олимпийского Образования, Воспитания И Обучения. - М., 2013.
34. Хамрақулов А.Қ. ва бошқ. Олимпия билим асослари. Т. Шарқ. 2002.
35. Yarashyev K.D., Jismoniy tarbiya va sportni boshqarish, darslik, - Т., Ibn Sino, 2002, 223-bet.
36. Yunusov T.T., Abdumalikov R., Yarashev K.D., Assolom Olimpiada, - Т., О‘зДЖТИ nashr., 1993.

Dissertatsiyalar:

37. Тихонович К.А. Формирование организационно-педагогических основ олимпийского образования в России. Дис. ... канд. пед. наук. М. 2001.

38. Юрьевич К.А. Идеи и практика олимпизма в современной культуре. Дис. ... канд. куль. К. 2008.

Ilmiy maqolalar:

39. Andrzej Pawłucki. Why the Olympic Modernism is more than Sport? //Physical culture and sport studies and research. 2009 • VOLUME XLVII. p.117-124.

40. George Margaritis., Mateusz Rozmiarek., Ewa Malchrowicz-Mosko. Tangible and Intangible Legacy of the 19 th Century Zappas Olympics and their Implications for Contemporary Sport Tourism. Physical culture and sport studies and research. Volume LXXIV. 2017.

41. Jerzy Kosiewicz. Professional, Spectator, and Olympic Sports in the Context of the Terms Spiritualism and Spirituality, and in the Context of Normative Ethics. //Physical culture and sport. Studies and research. 2015 • VOLUME LXVIII. p.43-62.

42. Julia Murrmann. The Linguistic “Fairness” of the Olympic Charter: Sociolinguistic Analysis of the Solutions Adopted in the Official International Document for Global Sport. //Physical culture and sport. Studies and research. 2014. Volume LXI. 39–50

43. Konstantinos G. The implementation of Olympic education programs at World level. //Procedia Social and Behavioral Sciences 41 (2010) 6711–6718.

44. Michael Krüger. Olimpism and olympic education. // Педагогико-психологические и медико-биологические проблемы физической культуры и спорта. Том 11 № 4 2016. 162-175с.

45. Mzali M .Olimpism Contribution international Understanding and the Peass/ M Mzali //IOA. Report of the 25th session of the Lausanne 1986.-P. 35-44.

46. Neverkovich Sergei. Methods of Olimpik Edukation //IOA.Report of the 27th Session. –Lausanne ,1988.-P 172-176

47. Rune Dall Jensen ва бошқ. The Olympic Games: The Experience of a Lifetime or Simply the Most Important Competition of an Athletic Career? //Physical culture and sport. Studies and research. 2014. Volume LXIV. 41–50

48. Бадаев Р.Р., Ҳайдаров З.Ф. Олий таълим тизимида олимпия таълимотини тарғиб қилиш йўллари. // Олимпизм – кеча, бугун, эртага: муаммо ва ечимлар // Республика илмий-назарий анжумани. Наманган. 2018 й. - Б. 73-76.

49. Баринов С.Ю. Значение олимпийского образования для формирования спортивно-гуманистической культуры личности. // Образовательные модели МГИМО. с.194-197.

50. Богданова М.А. Культурное содержание олимпизма: от античности к современности // Вестник Томского государственного университета. – 2010. - № 336. – С. 55 – 59.

51. Бойбобоев Б.Ғ. Олимпия таълими тизимида академияларнинг ўрни ва аҳамияти. Олимпизм – кеча, бугун, эртага: муаммо ва ечимлар // Республика илмий-назарий анжумани. Наманган. 2018 й.-333 б.

52. Бойбобоев Б.Ғ. Олимпия таълими тизимининг ташкил қилиниши. Фан спортга. Илмий-назарий журнал. 2017 й. 4-сон. 76-79 б.

53. Бойбобоев Б.Ғ. Ўқувчи ёшлар учун олимпия таълимини беришнинг самарали тизимини яратиш. Олимпия спорт турлари– ютуқ ва истикболлари// Худудий илмий-назарий анжумани. Наманган: 2017.-46-49 б.

54. Джалилова Л., Исроилова М. Эффективные методы преподавания «Истории физической культуры и олимпийского движения». Фан спортга. Илмий – назарий журнал. 3/2016. 38-41 б.

55. Ефременков К.Н., Ефременкова И.А. Эффективность экспериментальной модели олимпийского образования в условиях профессиональной подготовки студентов вузов физической культуры.

//Научно-теоретический журнал«Ученые записки», №12(82) – 2011 год. 72-74с.

56. Крюгер М. Олимпизм и олимпийское образование. Педагогико-психологические и медико-биологические проблемы физической культуры и спорта. Том 11. № 4. 2016. ISSN 2070 4798.

57. Кузнецова З.М., Симаков Ю.П. Возрождение олимпийской традиции. //Педагогико-психологические и медико биологические проблем физической культуры и спорта. – 2009. - №1 (10).

58. Мамажонов Д., Раҳмонов М., Абдуразокова Ф. П.Кубертеннинг замонавий олимпия концепциясида шахс ривожланиши. // Олимпизм – кеча, бугун, эртага: муаммо ва ечимлар // Республика илмий-назарий анжумани. Наманган. 2018 й. - Б. 267-269.

59. Родиченко В.С., Контанистов А.Т. Основы олимпийских знаний. Дополнение к программе //Физкультура в школе , -1999, -№ 5 .-С.56-58.

60. Самаранч Х. А.Орентир –XXI век(Текст)/ Х. А Самаранч// Олимпийская панорама-1999.-№1-С.24-31.

61. Шакирова М. В. Воспитание гражданственности студентов на основе олимпийских знаний. //Омский научный вестник. – 2011. – №2 (96).

Internet saytlari:

62. www.olympic.org

63. www.olympic.uz